

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

XUDOYQULOV AKMAL

**NIDERLANDIYA SHAHARLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA
MADANIY TARAQQIYOTI (V-XV ASRLAR)**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"
kafedraasi mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
"_____" _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:
_____ ass. D.Rasulova.

SAMARQAND 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. V - X ASRLARDA NIDERLANDIYA SHAHARLARINING IJTIMOIY – IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOTI.....6	
1.1. Niderlandiya hududlarining franklar tomonidan egallanishi.....	6-8
1.2. Franklar davlati hukmronligi davrida Niderlandiya shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	8-18
1.3. Normanlar bosqini davrida Niderlandiya shaharlari.....	18-21
1.4. Ilk o'rta asrlarda Niderlandiya madaniyati.....	21-24
II BOB. X-XV ASRLARDA HUNARMANDCHILIK, SAVDO-SOTIQ NING RIVOJLANISHI VA SHAHARLARNING YUKSALISHI.....25	
2.1. O'rta asrlarda Niderlandiya shaharlarining rivojlanishi va yuksalishi.....	25-40
2.2. Niderlandiya shaharlarining G'arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan savdo va diplomatik aloqalari.....	40-44
2.3. Shaharlar boshqaruv tizimida tabaqaviy vakillik organlarining vujudga kelishi.....	45-53
2.4. XI-XV asrlarda Niderlandiya madaniyati taraqqiyoti.....	53-66
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	67-68
XULOSA.....	69-70

KIRISH

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish, milliy tiklanish, o'z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda-bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo'ladimi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi-o'zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro'yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko'ramiz".¹

Mustaqilligimiz qaror topgan bugungi kunlarimizda ma'naviy yangilanish, milliy tiklanish, milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan va mustahkam milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortmoqda. Davlatimiz boshlig'i Islom Karimovning respublika tarixchilari bilan uchrashuvda (1998 yil 26 iyun) so'zlagan nutqida², shuningdek milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan shundan keyingi chiqishlarida tarix fanining ma'naviy salohiyatini safarbar etish, tarixiy haqiqatni tiklash sohasidagi harakatlarning keng dasturi, tanlangan mustaqillik va taraqqiyot yo'lidan borib, mo'ljallangan maqsadlarga erishishning mustahkam ilmiy asosi belgilab berildi. Shu munosabat bilan har bir davlat tarixiga hurmat nuqtai-nazaridan uni chuqur, har tomonlama, tarixiy ma'lumotlarga tanqidiy yondashgan holda o'rganish biz yosh tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. "Маънавият", 2008. 26-бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ, Т.: "Ўзбекистон", 1998. 31-бет

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimiz va jahon davlatlarining tarixini atroflicha o'rganishga keng ko'lamli imkoniyat tug'ildi. Yevropa mamlakatlari boy tarixga ega va asrlar osha ilm-fan va ma'rifat markazlari bo'lib, jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markazlar, - shaharlar shakllangan. Shulardan biri ilk va o'rta asrlarda shakllangan Niderlandiya shaharlaridir. Tabiiyki, ushbu madaniyatning in'ikosi va markazlari uning shaharlaridir. Bu shaharning ko'pchiligi bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, ushbu davr mobaynida ularda siyosiy, ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot omillarini o'zida mujassamlashtirgan shahar madaniyati shakllanib rivojlanib keldi. Ayni, paytda shahar, alohida ma'naviy muhit shakllanadigan hamda mamlakatning barcha qon tomirlari birlashadigan markaz sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'rta asrlar insoniyat kamolotining muhim davrini ifodalaydi. Bu davr keyigi jahon xalqlari iqtisodiy va milliy madaniyatining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi, uning taraqqiyotini tezlashtirishda o'zining munosib hissasini qo'shdi. O'rta asrlar Niderlandiya shaharlari madaniyati jahon tarixining bir qismi bo'lib, unda Yevropa xalqlari va shaharlarining V-XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy hayoti, tafakkurida yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini anglash hamda bu madaniy merosning keyingi davr avlodlari uchun ahamiyatini ko'rsatib berish va mazkur jarayonlar yuzasidan xulosalar chiqara bilishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

Ilk o'rta asrlardan boshlab to so'nggi o'rta asrlarga qadar bo'lgan tarixiy davr mobaynida Niderlandiya shaharlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini, jumladan davlatchilik jarayonlari, shaharsozlik, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo, madaniyat va boshqa davlatlar bilan aloqalar kabi omillarni rivojlanib borishini o'rganish, tahlil etish va yoritish asosiy maqsad va vazifamiz hisoblanadi.

O'rta asrlarda Niderlandiya shaharlari tarixini yoritish va tahlil etishda arxeologik tadqiqotlar o'rta asr yozma manbalari va moddiy madaniyat namunalaridan ma'lumot olamiz. Niderlandiya shaharlarining V-XV asrlardagi ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishimizda Grigoriy Turskiy, M.I.

Reshina, V.L. Kerov va G.A.Shatoxina-Mordvinseva va boshqa soha mutaxassislarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, G.A.Shatoxina-Mordvinsevaning “История Нидерландов” asarida Niderlandiya shaharlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini, jumladan davlatchilik jarayonlari, shaharsozlik, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo, madaniyat va boshqa davlatlar bilan aloqalari atroflicha yoritib berilgan. V.L. Kerovning “Из истории Франции и Нидерландов в эпоху Средневековья и раннего Нового времени (экономика, политика, религия)” asarida Niderlandiyaning o'rta va so'nggi asrlar tarixi ishonchli manbalarga asoslanib yoritib berilgan.

Mazkur Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 70 sahifani tashkil etadi.

I BOB. V - X ASRLARDA NIDERLANDIYA SHAHARLARINING IJTIMOIY – IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOTI.

1.1. Niderlandiya hududlarining franklar tomonidan egallanishi.

Niderlandiya hududida odamlar neolit davridan yashaydi. Miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida bu yerda kelt qabilalari istiqomat qilib kelishgan. I asr boshida bu qabilalarni germanlar siqib chiqargan. Miloddan avvalgi I asr oxirida Niderlandiya hududining bir qismini rimliklar tomonidan zabt etilgan ³. Milodiy III—IV asrlarda Niderlandiya hududiga franklar va sakslar hamda frizlar kelib o'rnasha boshladilar ⁴.

Romanlashtirish jarayoni kechayotgan bir onda Rimning chegaralariga tahdid solina boshladi. III asrning o'rtalariga kelib rimliklar o'z chegaralarini varvar qabilasining hujumlaridan himoyalanişga kuch topa olmay qoldilar. Varvarlarning ittifoqi Rimning shahar va qishloqlarini vayron qilib, u yerdagi aholini qul qilib ketardi. Asosan bu hujumlar Reyn daryosi bo'yida kechardi. 259—260 yillarda Reyn hududidagi bir qancha manzilgohlari vayron qilib tashlandi. III asrning ikkinchi yarmidan boshlab varvarlar g'arbga tomon siljidi. Reynning bu hududida niderlandlar istiqomat qilardi. Gaaga hududiga yaqin joyda istiqomat qilgan niderland qabilalari varvarga hujumiga duchor bo'lgani haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Buyuk ko'chishlar davrida ham bu hududlar varvarlar tomonidan zabt etildi va vayron etildi ⁵.

Ko'pgina niderlandlar istiqomat qiluvchi Frislandiya hududlari yashash uchun yaroqsiz bo'lib qoldi. IV asrga kelib Quyi Germaniya hududlari nomigagina Rim qo'l ostida edi. Buni tushungan boshqa xalqlar german qabilalari ittifoqqa

³ История Европы. Средневековая Европа. М., 1992. Т. 2. стр 32

⁴ Григорий Турский. История франков. М., 1987. стр 56

⁵ Буданова В. П. Варварский мир эпохи Великого переселения народов. М., 2000. стр 41-48

kirisha boshladi. Quyi va O'rta Reyn bo'ylarida milodiy III asrda yashagan qabilalar ittifoqiga birlashgan german qabilalari guruhi (xamavlar, brukterlar, usibetlar, tenkterlar, sugambrlar va boshqa). Adabiyotlarda 2 guruhga bo'lingan. Birinchi guruh (g'arbiy franklar) ning negizini sali (dengiz bo'yi; keltcha sal — dengiz) franklari tashkil etgan. Ular dastlab Eysel daryosi bo'ylarida, IV asr o'rtalarida esa Reyn daryosi sohillarida yashaganlar. Ikkinchi guruh (sohil franklari) Reyn daryosining yuqori qismi bo'ylab Mayngacha bo'lgan hududda yashagan.

300 – yilga kelib Batav orollari salilar tomonidan egallandi. Sali qabilalari bu yerga kelgunga qadar Overeyssel hududida istiqomat qilardi. Salilarning boshqa hududlarga ko'chishlari ularni rimliklar bilan to'qnashtirdi va 341 – yilda ikki o'rtada ittifoq tuzilib ular Rimning federativiga aylandi. 350 – yilga kelib salilar hududlarini bir necha barobarga kengaytirdi. Germanlarning yirik qabilasidan bo'lgan franklarning hujumlari rimliklar uchun o'z hududlarini yo'qotish bilan tugadi. 358 – yilda rim imperatori Yulian II salilar tomonidan takroran egallagan hududlar Toksandriya va Maas mustaqilligini tan oldi. Bu hududlarga egalik qilish frank, friz va sakson qabilalarining o'zaro kurashiga olib keldi. Rim va franklar o'rtasida tuzilgan ittifoq natijasida IV asr oxiriga qadar chegara hududlar varvarlar hujumini qaytaradigan bo'linmalar tuzildi.

Betyuva hududida frank askarlari, Niderlandiyaning janubiy yerlari hisoblangan Limburg hududlarini rim legionlari qo'riqlaydigan bo'ldi. 406 – yil dekabrga kelib Reyn daryosi oqimidagi Maynts hududi rimliklar nazoratidan chiqib ketdi. Bu vaqtga kelib Rimning shimoliy hududlari ko'chmanchi qabilalar tomonidan bosib olindi. Natijada Reynning barcha hududi bo'ylab boshqaruv qo'ldan ketdi. Bu yerda saqlab turilgan rim legionlari poytaxtni himoya qilish maqsadida Rimga qarab yo'l oldi. Shu bilan hozirgi Niderlandiya va Belgiya hududi rim hokimiyatidan xalos bo'ldi. Sali franklari IV asr o'rtasida rimliklar tomonidan tor-mor etilgan, biroq federatlar huquqida Toksandriyada qilldirilgan. 451 yil gunnlarga qarshi Katolaun jangida qatnashganlar. V asr boshida sali franklari Galliyanı Sommagacha egallaganlar.

V asr o'rtalariga kelib Niderlandiya hududida germanlarning 3 ta yirik qabilasi istiqomat qilardi. Bular: daryo qirg'oqlarida – frizlar, sharqiy tomonida saksonlar, janubida Vezer va Emsni zabt etgan franklar kelib o'rnashgan edi. Bu xalqlar uchun yagona til german tili edi. German tilida so'zlashadigan elatlarning chegarasi Kyoln-Bave-Bulongacha yetib borgan edi. Janubroqda istiqomat qilgan xalqlar esa lotin tilini o'z ona tili sifatida bilardi. Lotin tilining asosiy tilga aylanganligi romanlashtirish unsurlaridan biri edi ⁶.

1.2. Ilk o'rta asrlar Niderlandiyasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

IV asr o'rtalariga kelib Niderlandiyaning ichki viloyatlari ko'chib kelgan frank va saksonlar tomonidan egallanib, ular bu yeda dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Belgiyaning ovloq bo'sh yotgan yerlari, Galliyadan Luara daryosiga qadar yerlar franklar tomonidan birin ketin zabt etildi. Rim-gallar bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlarida bo'lgan franklarning tashqi ko'rinishi ham boshqa german qabilalaridan ancha farqlangan. Franklar hayvon terisidan emas, matodan kiyim-bosh kiyishgan va soch-soqqollarini olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilargina uzun soch bilan yurishlari mumkin bo'lgan. G'arbiy Rim imperiyasining inqirozidan keyin franklarga qo'shni bo'lgan Galliyada rim noibi Egidiy mustaqil knyazlik tuzadi.

Xuddi shu davrdan franklarning Galliyaga hujumlari yanada kuchayadi. Ularga frank qabilalaridan biri, merovinglar sardori Xlodvig boshchilik qiladi. Uddaburon va shafqatsiz Xlodvig tez orada o'z raqiblarini yengib, barcha frank qabilalari ustidan hukmronligini o'rnatadi. Natijada 486 – yilda Merovinglar sulolasidan bo'lgan Xlodvig Franklar davlatiga asos soldi. V asrdan boshlab niderland yerlari (frizlar hududidan tashqari) Franklar davlati tarkibiga kirardi. Franklar sardori Xlodvig Quyi Reyn hududida istiqomat qiluvchi barcha german qabilalarini birlashtirdi. Maas va Luara daryolari oralig'ida yashagan franklar

⁶ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов . М.: Дрофа, 2007. стр 34-38

keyinchalik mahalliy aholi bilan singib ketib, shimoliy fransuz, shuningdek, vallon elatlari tarkibiga, Luaraning janub ro'g'ida yashovchi franklar esa, janub fransuz (provansal) elati tarkibiga kirgan. Reyn daryosining quyi havzasida yashovchi franklar gollandlar va flamandlarning etnogenezida katta rol o'ynagan. Reyn daryosining o'rta oqimi bo'ylab va Maas daryosi havzasida yashovchi franklarda o'ziga xos etnik xususiyatlar saqlanib qolgan.

V-VI asrlarda niderland xalqi to'g'risidagi ma'lumotlarni biz Grigori Turskiyning "Franklar tarixi" asaridan bilib olishimiz mumkin ⁷. Reyn bo'yni hududlari uchun kurashni friz va frank qabilalari olib bordi. Friz va franklarning aksariyat qabilalari hozirgi Utrext hududlarida istiqomat qilardi. Franklar davlatida joriy etilgan qonunlar va qarorlar niderland yerlarida ham amal qilinardi. Franklar istilo qilgan hududlarda rimlik quldorlarning hashamatli saroylari-yu ulkan yer-mulkleri saqlanib qolgan. Mahalliy aholining asosiy qismini rim-gallar tashkil qilgan. Franklar qullikni bekor qilmaydilar. Mamlakatda asosiy ishchi kuchi qullar va kolonlar bo'lib qolaveradi ⁸.

Dastlabki paytda franklar gallardan alohida yashaganlar. Luara daryosidan shimoldagi german qabilalari esa yana uzoq yillar urug' jamoa bo'lib yashashda davom etadi. Mamlakat janubidagi gallar esa son jihatidan german qabilalari: burgundlar, vestgotlardan, keyin-chalik hukmronlikni o'rnatgan franklardan ham ko'proq bo'lgan. Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi paytida qirollar - alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga yirik yer mulklar - benefitsiyalar taqdim etganlar. Shu tariqa qirol va uning jangchilari; ruhoniylar, qirol saroyiga yaqin rim-gall zodagonlari, quldorlardan yangi yirik yer egalari — feodallar toifasi vujudga keladi ⁹.

Qirollar hokimiyati kuchayib borishi bilan muhim qonunlar, qarorlar qabul qilish uchun xalq yig'inlarini chaqirmay qo'yadilar. Qirol tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar esa xususiy mulkchilik va tengsizlikni mustahkamlab borgan. Qirol

⁷ Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л., 1955. стр 119

⁸ Григорий Турский. История франков...стр 71-80

⁹ Удалцова З. В, С. П. Карпов. История средних веков. Т., 1 - 2 М., «Высшая школа», 1991. стр 121-130

hokimiyatning barcha sohalarini o'z qo'liga olib, davlatni o'zining shaxsiy mulki sifatida boshqargan. Ilgari jamoa mulki hisoblangan ekinzorlarni va boshqa yerlarni xohlagan kishisiga in'om etar, davlat xazinasidagi mablag'larni ham istaganicha sarflardi.

Franklarda Xlodvig davridayoq mamlakat viloyatlarga bo'linib, ularni qirol tayinlagan graflar boshqara boshlaydi. U o'z hududlarini qirol nomidan boshqarib, aholidan soliqlarni yig'ib olish, harbiy qo'shinga boshchilik qilish, sud qilish kabi ishlarni bajargan. Sudning qarori bilan yig'ilgan jarimalarni 1/3 qismi qirol xazinasiga yuborilar edi. Franklar soliq tartiblarini rimliklardan qabul qilganlar.

Urug' jamoachilik an'analari esa har yili o'tkaziladigan harbiy ko'rik tarzida va mahalliy boshqaruvda saqlanib qoladi. Mahalliy boshqaruv asosini erkin franklarning yuzlik yig'inlari tashkil etib, uning boshlig'i, tungin deb nomlangan.

Ularning yerlarida VI asr oxiridan qullar, kolonlardan tashqari o'z erkinligini yo'qotgan franklar, niderland va frizlar ham ishlaganlar.

Natijada yangi jamiyatning asosiy toifalari: feodallar va qaram dehqonlar tashkil topadi. Shimoliy Galliyada tashkil topgan frank qirolligi Xlodvigning vorislari davrida 534-yili Burgundiyan va 536-yili Provansni istilo qiladi. Franklar germanlarning: tyuring, alemann, bavar qabilalarini ham bo'ysundirib, ularni har yili o'lpon to'lashga majbur etadilar. VI asr oxiridan - franklarning chek yerlari dehqon oilasining sotishi yoki in'om etishi mumkin bo'lgan mulki - allodga aylanadi. Qirollar tomonidan chiqarilgan yangi qonunlar yerni xususiy mulkka aylanishini tezlashtiradi. Qirol Xilperik davrida yangi qonun chiqarilib u o'g'il voris bo'lmasa yerni avvalgidek jamoaga emas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o'tish huquqini tasdiqlaydi.

Mamlakatni boshqarish viloyatlarga bo'lingan tarzda amalga oshirildi. To'rtta asosiy viloyat: Neystriya, Avstraziya, Burgundiya va Akvitaniya edi. Bu hududlarni boshqarish mayordomlar qo'l ostida edi. Mayordomlar merovinglar sulolasidan tayinlangan. Niderlandiya yerlari Avstraziyaga viloyati tarkibida edi. Niderlandiya hududida german qabilalari va franklar aholining ko'pchilik qismini tashkil etardi. Niderlandiya hududida romanlashtirish tasiri kuchsizligi sabab

aholini ko'pchiligi ibtidoiy jamiyatda hayot kechirardi. Kichik yer egasi hisoblangan allodchilar mamlakat hayotida muhim rol o'ynay boshladi. Feodallar o'rtasida tabaqalanish vujudga kelib ular kichik va o'rtacha yerga ega bo'lganlarga bo'lindi. Cherkovga tegishli bo'lgan yerlar esa juda ozchilikni tashkil etardi. Feodal munosabatlarning sustligi sabab mayordomlarning obro'si oshishiga olib keldi. Ulardan biri Arnulfinglar sulolasi vakili Pipin Geristalskiy (Pipin II) 687 – yilda Fanklar davlatining mayordomi etib tayinlandi ¹⁰.

VII asrning ikkinchi yarmida Franklar davlati kuchayib Pipin II frizlarga qarshi kurash olib bordi. Frizlarning davlati “Buyuk Frislandiya” deb atalib (100 yil yashagan), uning tarkibiga G'arbiy Flandriyaning Vezer daryosi bo'ylari va Maas daryosining quyi oqimi kirardi. Frizlar bu hududlarni bosib olgandan so'ng aholini ommaviy ravishda ko'chirib yubordi. 689 – yilda Pipin II Dorestad yaqinida frizlarga zarba berib Reyn hududidagacha bo'lgan Frislandiya yerlarini egallab oldi. Biroz vaqt o'tgandan so'ng frizlarning janubiy-g'arbiy yerlariga franklar kelib o'rnashdi. Bu kabi yo'qotishlardan keyin ham friz xalqlari franklarning eng kuchli qo'shnilaridan biri bo'lib qoldi.

Frizlar yerida missonerlik faoliyati ham kuchayib bordi. Ko'pgina missionerlar Shimoliy dengiz qirg'oqlarida yashagan frizlar va saksonlar bilan til va madaniy jihatdan yaqin bo'lgan angl-sakslar edi. Vilfrid, Villibrord va Bonifatsiya kabi missionerlar xristian dinini Niderlandiya hududida istiqomat qiluvchi xalqlar o'rtasida yoyishga muvaffaq bo'ldi. York yepiskopkigidan bo'lgan Vilfrid 678-679 yillar davomida Frislandiya hududida faoliyat ko'rsatdi. Vilfrid qirol oilasi bilan yaqin aloqada bo'lganligi aytiladi. Frizlar qirol Aldigisl (623-679) ning mayordomlar bilan bo'lgan kelishuvlarida elchilik vazifasini amalga oshirgan. “Xudoning dushmani” deb nom olgan Radbod (679-719) ning taxtga kelishi bilan Vilfrid o'z missionerlik faoliyatini to'xtatib Frislandiyani tark etishga majbur etgan.

Irlandiya safaridan qaytgan Villibrord (658-739) franklar hududida

¹⁰ История Средних веков: В 2 т. / Под ред. С. Д. Сказкина и др. «Высшая школа», 1977. стр 118-131

yashayotgan frizlarni cho'qintirishni davom ettirdi. Faqatgina 719 – yil Radbodning vafotidan so'ng Villibrord o'z faoliyatini Frislandiyaning shimoliy qismida olib bordi. Ko'pgina frizlarni cho'qintirgan Villibrord oradan biroz vaqt o'tib frizlar tomonidan arxiyepiskop darajasiga loyiq ko'riladi. Villibrordga Utrext shahridan qarorgoh qurib beriladi. Karl Martel 717 – yilda frizlar qiroli Radbod ustidan g'alaba qozonib, G'arbiy va Oрта Frislandiya yerlari Franklar davlati tarkibiga kiritildi. Shundan so'ng frizlarning barchasi xristianlikni qabul qildi ¹¹. Lekin frizlarning ba'zi kichik qishloqlarida istiqomat qiluvchi majusiy aholi xristianlikni qabul qilishni rad etib kelardi. Frislandiya hududiga tashrif buyurgan arxiyepiskop Bonifatsiy bilan mudhish voqea yuz berdi. 754 –yil 5 – iyun kuni cho'qintirish marosimi bo'layotgan bir paytda ularga majusiylar hujum qildi. Bonifatsiy va uning hamroxlari majusiylar qo'lifan vafot etdi.

Franklar davlatining gullab yashnashi Karolinglar sulolasidan bo'lgan Buyuk Karl (768-814) davriga to'g'ri keladi. Buyuk Karl sakson va frizlar orasida saqlanib qolgan majusiylarga qarshi kurashni boshlaydi. Saksonlar ommaviy ravishda o'z yashab turgan hududlaridan Frank davlatining boshqa hududlariga ko'chirildi. Ularning yerlariga franklar joylashtirildi. Bunday siyosatdan norozi bo'lgan sakson va frizlar 784 va 790-795 yillarda ularga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. 785 yilga kelib “Buyuk Frislandiyaning” barcha hududlari Franklar davlati tarkibiga kiritildi. Rim imperatori Avgust davridan boshlab niderland xalqlari markaziy hokimiyatning asosi tashkil etib kelgan edi ¹². Ularning hududi Elba daryosigacha ya'ni Karolinglar sulolasining yerlarini tashkil etardi. Shu sababdan ham Niderlandiya G'arbiy Yevropani shakllanishida muhim rol o'ynadi. Chunki Niderlandiya yerlarida tashkil topgan Karolinglar davlati aynan niderland xalqining say harakatlari bilan amalga oshirilgan edi. Karolinglar sulolasi uchun muqaddas hisoblangan bu yerlarni Buyuk Karl tez-tez ziyorat qilardi.

¹¹ Токарев С. А. Ранние формы религии. М., 1990. стр 165

¹² Федорова Е. В. Люди императорского Рима. М., 1990. стр 221

Buyuk Karl Reyn va Maas daryolari oralig'ida bunyod etilgan qirol qasrida va Neymegen saroyida to'xtab dam olishni yoqtirardi. Buyuk Karlning Franklar davlatida amalga oshirgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlari imperiya tarkibidagi hududlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Buyuk Karlning saroy xizmatkorlari ayni paytda vazirlar vazifasini ham bajargan. Qirol saroyi yuqori lavozimdagi: moliya, soliq, harbiy a'yonlari, dasturxonchi, otxona boshlig'i va boshqalar Franklar davlatidagi muhim lavozimlar bo'lgan. Yirik qabilalarni gersoglar (saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i) boshqargan. Davrlar o'tib gersog eng yuksak unvonlardan biriga aylandi. Yirik bo'lmagan hududlarni imperator tayinlagan graflar (qirol tayinlagan amaldor) boshqaradi. Gersog unvoni avvaldan merosiy bo'lsa, graflarni imperator tayinlagan. Buyuk Karl o'z davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida markalar (chegara harbiy viloyati) tuzib ularni markgraflar (chegara viloyati hokimi) boshqargan.

Imperiya markazini Frank, Langobard va Akvitanিয়া qiroliklari tashkil etgan. Niderlandiya yerlari Franklar qirolligi tarkibida bo'lib uning poytaxti Axen shahri edi. Hududlarni boshqargan imperator vakillari u bilan birga janglarda ishtirok etishi majburiy edi. Bir qancha graflik gersoglikni tashkil etgan. Frislandiya boshqaruv tizimida viloyatlar gau deb atalib, bu nom uning hududida qadimdan yashab kelgan xalqlar nomidan olinganligi aytiladi. Merovinglar davridan boshlab gaular, grafliklarga o'zgartirish ishlari amalga oshirila boshlandi.

Graf hukumat vakili edi. Graflikni, sud ishlarini va solingan jarimalarning qirol g'aznasiga yetib borishini nazorat qilardi. Mahalliy hukumat organlari ustidan nazorat davlat elchilari va graflar tomonidan amalga oshirilgan. Niderlandiya yerlari uchta yepiskoplikka bo'lingan edi: Lejsk, Utrext va katta hududni egallagan Myunster. Bu yepiskopliklarning chegaralari 1559 - yilga qadar o'zgarmasdan qoldi. Niderlandiya hududida ilk monastirlar VII asrning birinchi yarmidan vujudga kela boshlagan edi. Buyuk Karl davrida Niderlandiya hududidagi monastirlarning shuhrati butun Yevropa bo'ylab tarqalgan edi. Bu monastirlarda adabiyot va rassomchilik sanati o'rgatilardi. Undan tashqari yirik kutubxonalar ham aynan monastirlar qoshida tashkil etildi.

Cherkov ichida “xudoga xizmat qiluvchilar” va ular yuqori amaldorlarga bo’ysungan, boshqalar esa xudoga xizmat qilmaganlar va Buyuk Karlning vafotidan so’ng esa ular markaziy hokimiyatdan mustaqil bo’ldilar va o’z yerlaridagi hukmdorlarga aylandi ¹³. Cherkov esa qirolning sekulyarizatsiya qilish huquqini hech qachon tan olmagan. Alohida yirik feodallar esa o’zlari va dehqonlari uchun cherkovlar qurib olganlar. Bu cherkovlardan esa chiqimlarni qoplashda foydalangan; daromadlarning bir qismi esa ruhoniylar qo’llariga borib tushganlar. Ko’p tasodifiy holatlarda senyorlar esa barcha daromadlarni cherkov xizmatchilariga berganlar. Yuqori senyorlar markaziy hokimiyatining zaiflashishi oqibatida esa qirollik –imperatorlik cherkov yerlarini egallaganlar .

Ruhoniylarning senoyorlardan ozod bo’lishi uchun har bir soborlarda shu haqida so’zlab turilar va ruhoniylar vazifasini esa tayinlashga bo’lgan huquqlar bekor qilinar edi. Feodallashuv jarayoni natijasida ruhoniylar o’z yerlaridan mahrum bo’lar edilar. Cherkovlar ham feodallasha boradilar, ularda vassallar, ritsarlar ham paydo bo’la boshlaydi, ular yepiskop obro’yini tan olmadilar va eskilik xudojo’ylari va cherkov xizmatchilari o’rtasida qarama – qarshilik kelib chiqdi.

Niderlandiya gersogliklaridagi alohida yer magnatlari imperator va papa bilan munosabatlarni yaxshilash uchun, monastirlar qurar edi, bundan maqsad o’z chiqimlarini qoplash edi. Bu monastirlardagi mansabni sotib olish mumkin bo’lgan, uni egallash uchun esa ruhoniylar bo’lish va umuman ruhoniylar hayotiga aloqasi bo’lmagan kishilar ham shart edi : u monastirdagi daromadlarni hisoblar va o’zi bevosita ijaraga berar edi. Past tabaqadagi ruhoniylar asketizm bilan yashar edilar. Yuqoridagi ruhoniylar esa “muqaddas to’lov” larni olar va uni o’zlari uchun ham ishlata edilar.

Niderland yer amaldorlari hech qachon papa amaldorlariga bo’ysunishni hohlamagan. Feodallar bilan kurashishda papalik dushmanning kuchini

¹³ Хрестоматия по истории Средних веков / Под ред. С. Д. Сказкина. М., 1961-1963. Т. 1 -2. стр 83

bo'lib tashlash kerakligini bilar va shunday ham qildi. Graf va gersoglar uchun papa juda ham boy, kuchli va yirik feodal hisoblanardi, shuning uchun ham qudratli raqiblarini yengish uchun feodallar uning hisobiga o'zlarining hududlarini ko'paytirish uchun ham harakat qilganlar. Feodalizm davrining asosiy belgilaridan biri bo'lgan - ya'ni ba'zi bir xil amaldorlar vakillari o'zlarining manfaatlari asosida birlashganlar va dehqonlarni ekspluatatsiya (dehqonlar mehnatidan foydalanish) qilganlar. Ichki feodallar kurashida kichik feodallar anchagina mustahkamlanib olganlar.

Franklar davlatining ko'chirish siyosati oqibatida bu hududlarga ko'chib kelgan xalqlar asta sekinlik bilan o'zlariga boshpana bunyod eta boshladi. Hududning ichki va tashqi savdosini rivojlantirishga shaxsan Buyuk Karlning o'zi boshchilik qildi. Ichki savdoda frizlarning o'rni yuqori bo'lgan. Friz tili german tillarining g'arbiy guruhchasiga mansub bo'lib, Niderlandiyaning Frislandiya viloyatida, G'arbiy Friz orollarida va Germaniyaning Quyi Saksoniya (Zaterland) yerida va shimoli-g'arbida, Shimoliy Friz orollarida, Gelgoland orollarida tarqalgan edi. Asosan, og'zaki muloqot tili sifatida qo'llanilardi. Shu sababdan savdoda tilning o'rni katta bo'ldi.

IX asrda G'arbiy Yevropada frizlarning don, baliq, go'sht, tuz, teri va sopol mahsulotlariga talab katta edi. Savdoda barcha xalqlarning pullari muhim rol o'ynagan. Friz iqtisodiyotining jadal o'sishi natijasida yerga bo'lgan ehtiyoj oshib bordi. Rivojlangan savdo davlatga ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmadi. Niderlandiya shimolida davlatchilikni ilk ko'rinishlari nomoyon bo'la boshladi. Frislandiyada istiqomat qiluvchi barcha xalqlar ijara olingan yerga to'lovni pul bilan to'lash yo'liga o'tishdi.

Yevropaning markazidan oqib o'tgan Reyn daryosi qirg'oqlarida joylashgan hududlarda savdo manzilgohlari vujudga keldi. Doresdat, Leka, Maastrixt, Utrext, Domburg hududlari shular jumlasidan edi. Bu shaharlarda sudxo'rlar va savdogarlar soni bir muncha ko'p edi. VI asrda vujudga kelgan Doresdat Shimoliy Yevropa mamlakatlari savdosida muhim rol o'ynay boshladi. Uning gullab yashnashi VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Bu haqdagi ma'lumotlarni biz Yevropa

xronikalarida ko'rishimiz mumkin. Lyudovik Xudojo'y xartiyasi tomonidan chiqarilgan qarorlarida Dorestadlik savdogarlar qirol hokimiyati ostida ekanligi aytiladi. Dorestad shahri Gamburg, York, London, Reyn viloyati, Xaytab, Birk kabi hududlari bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Dorestad tangalariga kema va xristianlik ramzlari tushirilgan. Bu ko'rinishdagi tangalar hozirgi Angliya, Italiya, Ispaniya va Boltiq dengizi hududlaridan topilgan. Geografik jihatdan daryo hududiga yaqin joylashganligi uning birinchi bandargoh shahar ekanligi haqodagi ma'lumotlarni arxeologlar aniqlab berdi ¹⁴. Yirik yer egaligi jamoa yerlari hisobiga ham kengaya boradi. Tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, hosilsizlikning tez-tez takrorlanib turishi dehqonlarni o'z yerlaridan ajralishiga, so'ng feodaldan ijaraga yer olib ishlashga majbur etadi. Soliq to'lashdan tashqari, yirik yer egasi ekinzorlarida ishlab berishga majbur bo'lgan dehqon sekin-asta qaram kishiga aylana borgan. Bu yer-mulk - feod (len-mulk) harbiy xizmat evaziga taqdim etilib, keyinchalik merosiy mulkka aylangan. Feodning egasi feodal deb atalgan. Zamonlar o'tib harbiy ish faqat feodallar mashg'uloti bo'lib qoladi. Yirik feodallar viloyatlarga egalik qilsalar, mayda feodalga ma'lum qishloq yoki uning bir qismi taqdim etilishi ham mumkin edi.

Yirik yer egalarining mulklari ko'paygani sari qirol mustaqil bo'lishga intilib bordi. Imperiyada rasmiylashtirilgan va ixtisoslashtirilgan sud va oliy moliya idoralari palatalari mavjud bo'lmay, boshqaruvning doimiy soliq tizimi kabi muhim idoralar yo'q edi, qirol hududlarni nomigagina nazorat qilib turar, amalda esa chekka hududlarning graflari o'zlarini markazdan mustaqil deb his qilardilar. Buyuk Karl davlati o'zining tarkibiy jihatidan ham hilma-xil urug'larning beqaror siyosiy birlashmasidan iborat edi. Karl imperiyasiga kirgan qabilalarning har biri o'zining odatdagi qonun-qoidalariga amal qilib kelganini ko'rsatib o'tishi kifoya edi.

Ayrim qabilalar Karl hukmronligi vaqtidayoq xalq bo'lib birlasha boshlagan edilar. Sali va Ripuar franklari galliya-rim aholisi bilan aralashib ketib, shimoliy

¹⁴ Самаркин В. В. Историческая география Западной Европы в Средние века. М., 1976. стр 76-78

roman xalqining vestgotlar, burgundlar janubiy galliya-rimliklar bilan qo'shilib janubiy roman xalqini barpo etdilar. Buyuk Karl va uning vorislari zamonida feodallashuv jarayonining juda tezlashib ketayotganligi imperiyaning parchalanib ketishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki Buyuk Karl imperiyasi «qabila va xalqlarning quramasidan» iborat edi.

Frank qirol qo'l ostidagi yerlarning juda kengayib borishi, Buyuk Karlni va uning maslahatchilarini unvonini o'zgartirish to'g'risida o'ylashga majbur qildi. 800 yilda Karl Rimda bo'lgan vaqtida papa unga «rimlik imperatori» tojini kiydirdi. «Rimlik imperatori» degan ta'rifni qiziq joyi shundaki, bu ta'rif Rim an'analariining IX asrda ham odamlarga juda katta ta'sir o'tkazganligini ko'rsatardi. Karl franklar imperatori deb emas, balki rimliklar imperatori deb e'lon qilindi, vaholanki, bu vaqtda endi rimliklar degan xalq yo'q edi. Karlning eng yaqin maslahatchilari va oliy mansabdorlari Rim tarixini yaxshi bilgan hamma imperatoriga jamiyatdagi mutlaq oliy hokimiyat deb qaraydigan, rimcha urf-odatni o'zlashtirib olgan kishilar edi. shunga qaramay, Karl buyuk imperiyasini markazlashgan davlat deb sira aytib bo'lmaydi.

Buyuk Karl zodagonlar va boshqa «nufuzi odamlar» tomonidan dehqon yerlarining olinishini cheklashga ancha urindi, biroq feodallar uning farmoyishlariga qarshilik ko'rsatganlari uchun bu farmoyishlar amalda bajarilmay qolaverdi. Franklar jamiyatining feodallashuv jarayoni, ijtimoiy-siyosiy tuzumga ham ta'sir qildi. Karl Buyukning o'zi ham yirik feodallarga qaramligini ko'rsatib berdi. Karl Buyukning asosiy daromadlari uning pomestelaridan keladigan daromadlar edi. Qirol yerlari butun Franklar davlatining barcha hududida mavjud bo'lib, yuzlarcha katta va bir qadar kichik yerlardan iborat edi.

Buyuk Karlning vafot etishi (814) hokimiyatning o'g'li Lyudovik qo'liga o'tishiga olib keldi. Lyudovik Xudojo'y zamonida (814-840) imperiya bo'linib ketish xavfi kuchayib, bu yo'nalishdagi barcha harakatlarni bostirib keldi. Lyudovik dinga mukkasidan ketgan qirol bo'lib, ruxoniylarga va dunyoviy zodagonlarga butunlay qaram edi. Haqiqatda uning butun qirollik davri uzliksiz g'alayonlarga boy bo'ldi. Zodagonlar Lyudovikka qarshi bosh ko'tarib, uning o'z

o'g'illari Lotar va Lyudovikni o'z otasiga qarshi qo'ydilar. Lyudovik Xudojo'ning uchinchi o'g'li Karl (keyinchalik Yaltiroqbosh deb nom oldi) hamisha otasining yonini oldi.

Lyudovik Xudojo'y o'lgandan keyin uning o'g'illari bir-biri bilan yana urush boshladi. Imperator unvonini olgan katta akasi-Lotarga qarshi endi ikkala ukasi-Lyudovik Nemis va Karl Yaltiroqbosh bosh ko'tardi. Fontemuz shahri yonida bo'lgan jangda (841) Lotar ikkala ukasining birlashgan qo'shinlari tomonidan tor-mor qilindi. Bir yildan keyin 842 yilda Lyudovik bilan Karl Strastburg shahri yonida bitim tuzib, Lotar ustidan to'la g'alaba qozonguncha unga qarshi kurashni davom ettirishga ahd qilishdi.

843 yilda Verdenda Karl Buyukning uch nevarasi yig'ilishida, imeperiya uch qismga bo'lindi. Verden ahdiga muvofiq akasi Lotar imperatorlik unvonini saqlab qoldi, lekin ukalariga nisbatan hech qanday maxsus huquqqa ega emas edi, ukalarining har qaysisi o'z xolicha batamom mustaqil qirol bo'lib qoldi.

Lotarga Italiya, sharqda Reym bilan g'arbda Mass, Shelda, Sena va Roka daryolari o'rtasidagi yerlar tegdi. Reynning sharqidagi yerlari Lyudovik Nemisga tegdi. Lotarga qarashli yerlarning g'arbidagi yerlar Karl Yaltiroqboshga tegdi. Niderlandiya yerlari Lotar I (843-855) davlati tarkibida qoldi ¹⁵.

1.3. Normanlar bosqini davrida Niderlandiya shaharlari.

Buyuk Karl davlatining parchalanishi natijasida uning mulklariga agalik qilishni istagan davlatlar ko'payib bordi. Daniya hududida istiqomat qilgan normanlar 834 – yildan boshlab Dorestad va Utrext shaharlariga bosqinchilik yurishlarini amalga oshira boshladi. 837 – yildagi yurishlar Dorestad shahrining kuli ko'kka sovurildi. 857 – yilda yepiskoplik qarorgohi bo'lgan Utrext shahri vayron etildi. Imperatorlar normanlarga hech qanday qarchilik ko'rsata olmadi. Balki, urushlarni to'xtatish uchun ular bilan sharmandali shartnomalar imzolashga majbur bo'ldi. 841 – yilda bunday shartnomalarni imzolagan norman sardorlari

¹⁵ История Средних веков / Под. ред. С. П. Карпова. М., 2000. Т. 1-2. Стр 121-134

Harald va Rorik Janubiy Frislandiya hududida bir qancha lenlarga ega bo'ldi.

850 – yilda Lotar I Rorikga Dorestad hududidan yer in'om etdi. Rorikning kuchli qo'shinidan qo'rqqan Buyuk Karlning davomchilari birin ketin Lotar qo'yilgan xatoni davom ettirdi. Vli va Maas daryolari bo'yidagi shaharlar Zelandiya, Valxeren va Dorestadni qo'lga kiritgan Rorik mamlakat hukmdoriga aylandi. Dorestadni Frislandiyaning markazi etib belgiladi. Rorikning o'zi ham normanlar masalasida ojiz bo'lib shaharlarni ularning hujumidan saqlay olmadi. IX asrning ikkinchi yarmiga kelib Dorestadning iqtisodi yer bilan yakson bo'ldi. Bu shaharni aholi tark eta boshladi. Undan tashqari Reyn daryosining o'zani tez-tez o'zgarishi ham bunga sababchi edi.

Normanlarni hech bir to'siq to'xtata olmasdi. Ularning hujumlari keng quloqch yozib Limburg, Neymegen va Kyoln shaharlari ship-shiydon qilinib, vayron etildi. Qirolidan najot kutgan xalq bir necha yillar davomida adashganini tushunib yetdi. Normanlarga qarshi mahalliy xalqlar birlasha boshladi va bu ularni normanlar zulmidan ozod etdi. Burgundiya mustaqil qirollik bo'lib ajralib chiqdi. Imperatorlik unvoni Karolinglar xonadonining boshqa avlodlari vakillariga o'tdi. Masalan, 875-877 yillarda Karl Yaltiroqbosh imperator bo'ldi, 880-887 yillarda imperatorlik toji Lyudovik Nemisdan Karl Semizga o'tdi. 885 –yilda Karl III Semiz elchilari Gotfred Normanski bilan muzokara olib borayotgan bir paytda uni o'ldirishadi. U qirolidan G'arbiy Frislandiya gersogi etib tayinlangan edi. Uning o'ldirilishi Frislandiya normanlar zulmidan ozod bo'lganidan dalolat berardi.

X asrning boshlariga kelib esa imperatorlik unvonining umuman hech qanday real ahamiyati qolmadi. Karl II Yaltiroqbosh zamonidayoq Frank qirolligiga normanlar qattiq hujum qila boshlagan edilar. Karl II Yaltiroqbosh vafotidan keyin esa (877) bu hujumlar juda ham avj olib ketdi. Hujum qilganlar qismi norvejlar, qisman shvedlardan iborat bo'lgan skandinavlari edi. Skandinavlari o'sha vaqtda urug'chilik tuzumining tushkinlikka uchrash va feodalizmga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan bo'lib, ular orasida ko'pdan-ko'p bosqinchi

drujinachilar vujudga kelmoqda edi ¹⁶.

Bu drujinachilarga feodallashayotgan harbiy boshliqlar-yarllar va qirollar rahbarlik qilar edi. Dengizda suzishga usta bo'lgan va aynan shu davr uchun juda xavfli dushman bo'lib chiqdi. Normanlar kemalarida fransuz daryolari quyiladigan joylarga va O'rta dengiz qirg'oq bo'yidagi mamlakatlargacha kirib bordilar va bu mamlakatlarni shafqatsiz talab va harob qilib, aholisiga dahshat soldilar. IX asrda G'arbiy Yevropada shu munosabat bilan maxsus bir duo vujudga kelgan bo'lib, bu duo «ey xudo, normanlarning yovuzligidan o'zing saqla» deb boshlanar edi.

891-yilda german qiroli Arnulf Karintiysk tomonidan Luven yonida normanlarga qattiq zarba beriladi. Shundan so'ng normanlar harbiy qudrati birmuncha sustlashadi. Normanlarning Niderlandiya yerlariga bo'lgan hujumlari faqatgina XI asr boshlarida to'xtatiladi. Oxirgi hujum 1006 va 1007 yillar Til va Utrext shaharlariga amalga oshiriladi. Lekin bu yurish normanlarga kutilgan natijani bermadi, shahar aholisi ham katta talofat ko'rmadi. Tarixchilarning Nidelandiya yerlariga bo'lgan hujumlarini quyidagicha tariflaydi: normanlar tomonidan vayron etilgan Dorestad shahrining savdodagi ulushi butunlay kamayib ketdi. Bu hududlarda savdo qilgan frizlar savdo manzilgohlarini Reynning boshqa hududlaridan bunyod etishga olib keldi.

Natijada yangi savdo markazlari paydo bo'ldi. Deventer, Til va Medemblik shular jumlasidandir. Normanlarning hujumlari butun boshqaruv tizimini ham izdan chiqargan edi. Normanlarning asosiy hujumlari Flandriya va Frislandiyaga qaratilgan edi. Bu hududlar uchun kurash olib borgan graf va gersoglar qirol tomonidan taqdirlandi. Normanlar butunlay Niderlandiya yerlaridan chiqarib yuborilgandan so'ng graf va gersoglar eng yirik feodalga aylandi.

G'arbiy Yevropada boshqaruv tizimi asosan qirollar sulolasi tomonidan boshqarilar edi. Niderlandiya yerlarida esa aksincha hokimiyat gersoglar qo'lida to'plandi. Bu gersoglar harbiy xizmatlari evaziga in'om etilgan yerlarning egasi hisoblanardi. Normanlar hujumi davrida tashlab ketilgan monastir mulklari

¹⁶ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 41-42

mahalliy zodogonlar tomonidan qayta o'zlashtirildi. Dehqonlar mehnatidan foydalanish Yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan Niderlandiyada mo'tadil tarzda edi. Qaram dehqonlardan tashqari mamlakatda erkin dehqonlar qatlami ham mavjud edi.

Oradan biroz vaqt o'tib, Lotar vafotidan keyin yerlar qaytadan bo'lindi. Lotarning avlodlari Italiyadagi yerlarinigina o'z qo'lida saqlab qoldi. Reyn bo'yidagi yerlar Lyudovik va Karl o'rtasida taqsimlandi. Lotar davlati asosan 3 ga bo'lindi: Italiya. Provans va Lotaringiya. Shimoliy dengiz, Maas, Reyn va Mozel hududlari Lotaringiya tarkibiga kiritildi. Karolinglar sulolasidan bo'lgan qirollar Lotaringiya tarkibida bo'lgan Niderlandiya hududlari uchun shafqatsiz kurashlar olib bordi. 870 – yilda Sharqiy Frank va G'arbiy Frank yerlari o'rtasida Mersen shartnomasi imzolanib Lotaringiya yerlari ikki qirollik tomonidan bo'lib olindi. Bir qancha shartnomalar tufayli qismlarga bo'lingan Niderlandiya yerlari oxirida Sharqiy Franklar davlati tarkibida qoldi. Bu holat Genrix I (919-936) yuz berdi. 925 – yilda katta qo'shin bilan Lotaringiyaga bostirib kirgan Genrix I mahalliy zodogonlarni tiz cho'ktirdi ¹⁷.

1.4. Ilk o'rta asrlarda Niderlandiya madaniyati.

Qadimdan Niderlandiya hududida neolit davrining sopol idishlari, toshdan qurilgan megalitik inshootlari, milloddan avvalgi I ming yillikka mansub kelt manzilgohlari, milodiy I – III asrlar qadimgi Rim binolarining qoldiqlari, germanlarning metall, zargarlik buyumlari saqlangan. Ilk o'rta asr me'morchiligi namunalari bir qancha shaharlarda mavjud (shahar devorlari, saroy, qal'a, uylar). Mamlakatda tuproqning botqoqligi, tosh tanqisligi binolarning g'isht va yog'ochdan qurilishiga sabab bo'lgan.

Epik poeziya (she'riyat). Niderlandiya yerlarida istiqomat qilgan qadimgi german qabilalari diniy hayotida turli xildagi voqealarni aytib beruvchi din vakillari bo'lgan. Ular majusiy qo'shiqchilar deb atalgan. Ular “Beovulf”,

¹⁷ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 43

“Nebulinglar haqida qo’shiq” va “Gudruna” kabi asarlarni og’zaki tarzda kuylab aholi orasida nom qozonishgan. Bu asarlarni to’liqligicha yod bilmagan qo’shiqchilar o’zlaridan ma’lum bir voqealarni qo’shib aytavergan. VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan friz qo’shiqchisi Bernlefa shular jumlasidandir ¹⁸.

Karolinglar uyg’onish davri.

Karl Buyuk o’z zamonasining ancha ma’rifatli kishisi edi. U garchi yoshi ancha ulg’aygan vaqtda o’qish va yozishni o’rgangan bo’lsada, grek va lotin tillarini bilar va ma’rifatni qadrlar edi. Uning saroyiga turli yepiskoplik maktabida o’qigan Alkuin nomli angl-saks olimi ayniqsa mashhur edi. Langobardlik Pavel Dyakon, ispaniyalik vestgot Teodulf va boshqalar ham yashar edi. U keyinchalik Buyuk Karlning juda yaxshi tuzilgan tarjimai holini yozdi. Shunday qilib, ko’pgina antik mualliflarning asarlari keyingi avlodalar uchun saqlab qolindi. Karolinglarning yumaloq xarflari bilan donador qilib yozgan xatlari ularning o’zlaridan oldingi zamonlarda yozilgan lotin xatiga qaraganda ham juda chiroyli ekanligi tarixchilar tomonidan ta’kidlanadi. Buyuk Karlning madaniyatga qo’shgan hissasi sabab bu davrni Karolinglar uyg’onish davri deb ataymiz. Bu ilk o’rta asrlarda insoniyat tarixiga, antic davr tarixchilari asarlariga va franklarning kelib chiqish tarixiga bo’lgan qiziqish edi. Karl o’zining ajdodi bo’lgan german qabilalarining madaniyatiga ham e’tiborni qaratdi. Buyuk Karlning buyrug’i bilan kelajak avlod uchun qadimiy qo’shiqlarni saqlab qolish maqsadida ularni bir kitobga jamlash ishlari amalga oshirildi. Niderland qo’shiqlari ham shular jumlasidan edi. Niderland xalqi tomonidan ilk yozma esdaliklar lotin tilida yozilgan bo’lib, unda Cherkov aqidalari haqida gapirilgan. Undan tashqari yaxlit ma’no aks etmaydigan qadimiy adabiyot glossa deb atalgan. Unda berilgan ma’lumotlar o’quvchidan topqirlikni xislatlarini nomoyon qilishni talab etgan ¹⁹.

Kitob san’ati. Karolinglar davrida niderlandlarning madaniy jihatdan

¹⁸ Решина М. И. Фризы. Проблемы этнокультурного развития. М., 1996. стр 12-13

¹⁹ Каролингская эпоха. Из истории Западной Европы в раннее Средневековье: Сборник документов / Под ред. А. А. Сванидзе, Е. П. Мягкова. Казань, 2002. стр 56-81

rivojlanishida monastirlar muhim rol o'ynadi. Yepiskoplar, yirik monastirlar abbatlari imperatorning joylardagi va-killari sifatida uning buyruqlarini bajargan. Safarlari paytida Buyuk Karl yepiskoplar va graflarning ishlari qanday ketayotganligini tekshirgan. Agar suiste'molliklar aniqlansa, javobgar darhol lavozimidan ozod etilgan. Imperatorning o'zi barcha graflik va yepiskopliklarni aylanib chiqishi qiyin ekanligidan u o'zi ishongan davlat vakillarini mamlakat bo'ylab jo'natar edi. Ularga mahalliy hokimlarni jazolash, almashtirish huquqlari berilgan. Franklar mamlakati hududlari behad katta bo'lishi nazoratni murakkablashtirgan. Barcha grafliklarni nazoratda saqlash mushkul edi.

Bundan tashqari graflar bor kuchi bilan graflikda o'rnashishga, uni o'z avlodlariga meros qilib qoldirishga intilgan. Har bir monastir cherkovning muayyan yo'l-yo'riqlari asosida birgalikda yashovchi monax (rohib)lar jamoasi bo'lib, monaxlar jamoasi foydalanadigan ibodatxona, turar joy va xo'jalik binoalari majmui mavjud bo'lgan. Karolinglar boshqaruv davrini ba'zida "kitoblar asr" ham deyishadi. Karolinglar davriga kelib kitob san'ati yangi bosqichga ko'tariladi. Kitobni bezashda rim san'ati to'liq o'zlashtirildi. Natijada karolinglar miniskuli deb nomlanadigan yozuv ko'rinishi vujudga keldi. Badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli asarlar yaratildi.

Ilk o'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar, shuningdek, suyak, toshqog'oz, metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlarga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvir ishlatilgan. Badiiy kitob sohalari keng tarqalgan. Kitobda rasmlar rangli qilib bo'yoqlar bilan qo'lda bevosita qo'lyozma kitoblar varaqlariga ishlanib, undagi naqshlar (sarlavha, unvon, lavha) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg'unlashgan. Niderlandiya yozilgan kitoblardan eng mashhuri Utrext 816-835 yillarda yozilgan kitoblardir. Naqshlar bilan bezatilgan kitob hozirda Utrext Universitetida saqlanmoqda. Bu miniature ikki tomondan hoshiyali tarzda bezatilgan bo'lib, unda berilgan rasmlar asosida muallif nimani tushuntirib bermoqchiligining tushunish mumkin. Ba'zi san'at vakillarining aytishicha bu kitobni ochish bilan rasmlar jonlanar ekan. Lekin Niderlandiya hududida normanlar hujumi davrida monastirlarda saqlanga nodir asarlar yoqib

yuborildi.

Arxitektura. IX asrdan boshlab G'arbiy Yevropa ulkan qurilish maydoniga aylandi. Ko'pgina qirol qasrlari bilan birga cherkov monastirlar qurilishiga katta ahamiyat berildi. Ilk o'rta asr qurilishlarida bazilika uslubidan foydalanishga harakat qildi. V asrdan boshlab qirollik ibodatxonalarining asosiy qurilish uslubiga aylangan edi. Unda asosiy etibor altar qismiga katta e'tibor berildi. Uning shakli xoj shakliga o'xshatib ishlandi. Niderlandiya hududidagi memoriy yodgorliklar ichida bazilika uslubida qurilgan inshootlar X-XI asrga oid. Bu Notrdam va Maastrixtdagi Muqaddas Servatsiya hisoblanadi. Undan tashqari XI asrga oid Suan, Syuster va Nivel nomli monastir cherkovlari ham mavjud.

IX asrda qurilgan Axen kapellasi Karolinglarning bosh ibodatxonasi hisoblanardi. 1030 – yilda qurilishi tugatilgan Niderlandiyaning Neymegen shahrida bunyod etilgan kapella aynan uning nusxasi hisoblangan. Yepiskoplik markazi hisoblangan Utrextda ham ulkan qurilish ishlari amalga oshirildi. Uning hududlari kengayib hozirgi Gollandiya va Overeyssel hududigacha yetdi. XI asrning 40 yillarida yepiskop Bernald buyrug'i bilan Utrextda Avliyo Martina sobori bunyod etildi. Avliyo Pytor va Avliyo Ioanna ham shular jumlasidandir. Niderlandiyada amalga oshirilgan qurilish ishlari “Muqaddas Rim imperiyasi” ko'rkiga ko'rk qo'shdi ²⁰.

²⁰ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 46-48

II BOB. X-XV ASRLARDA HUNARMANDCHILIK, SAVDO-SOTIQ NING RIVOJLANISHI VA SHAHARLARNING YUKSALISHI

1.1. O'rta asrlarda Niderlandiya shaharlarining rivojlanishi va yuksalishi.

Yevropada X-XI asrlarda ishlab chiqarish yuksalib, u eng avvalo hunarmandchilikda kuzatiladi. Mehnat qurollarining takomillashuvi, ustalar mahoratining oshishi hunarmandchilikni dehqonchilikdan alohida sohaga aylantiradi. Mehnat qurollari, ritsarlarning qurol-aslahalari, himoya anjomlari tayyorlash uchun ko'plab metall zarur edi. Ehtiyojning oshishi Yevropada temir rudasini kovlab olish, eritish va ishlov berishni tezlashishiga olib keladi. Zig'irpoyadan to'qilgan gazlamalar odamlarni qoniqtirmay, jundan mato-movut to'qiy boshlaydilar. Gazlama to'qishda yotiq dastgohlardan foydalanish ishning unumdorligi va mahsulot sifatini oshiradi.

Dehqonchilikda olinadigan hosilning oshib borishi, hunarmandchilik va savdoning yuksalishiga yo'l ochadi. Aholining ko'payib borishi o'rmonlarni kesib, yangi yerlarni o'zlashtirish, ekin maydonlarini ko'paytirishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligida g'alla yetishtirishdan tashqari, bog'dorchilik, uzumchilik polizchilik, rivojlanadi. Hunarmandlar tayyorlaydigan buyumlar turi, soni, sifati oshib boradi. Lekin qishloqda feodal hokimiyatning bo'lishi hunarmandning erkinligini cheklagan. Natijada ular qishloqlardan qochib, o'z buyum-larini tayyorlash va sotish imkoniyati bo'lgan joylarga keta boshlaydi. Shaharlar eng avvalo xavfsizlik, dushman hujumidan himoyalaniishga qulay, qolaversa hunarmandlar o'zlari yasagan buyumlarni sota olish imkoniyati bo'lgan joylarda quriladi. Yevropada

shaharlarning paydo bo'lishi va yuksalishi turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi ²¹.

X-XI asrlarda Niderlandiya hududida joylashgan ko'pgina katta va kichik yer mulklarga egalik qilgan feodallar Muqaddas Rim imperiyasining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Bu davrda Niderlandiya hududidagi Flandriya va Frislandiya shaharlarining yuksalishini ko'ramiz. Bu ikki hudud Germanlar imperiyasi va Fransiya o'rtasida muammoligicha qolaverdi. Flandriyaning Fransiya tegishli qismida yirik mulklarga ega bo'lgan feodallar Fransiya qiroli ishonchini qozonib bir qancha soliqlardan ozod etilgan holda yashadi. X asr o'rtalariga kelib o'z mulklarini kengaytirgan Flandriyaliklarga Fransiya qiroli Artua hududigacha bo'lgan yerlarni in'om etdi ²².

Undan tashqari German qirollarining ishonchini qozongan niderland feodallari xizmatlari evaziga len tarzida bir qancha hududlarga ega bo'ldi ²³. Shunday qilib, Quyi Lotaringiyaning Zelandiya hududi va to'rtta viloyatga ega bo'lib olgan Flandriya grafligi hukmron sulola vakillari bilan mustahkam aloqani bog'lagan davlatga aylandi. Oxirida qiroлга qarshi chiqqan feodallar yerlari ya'ni Nider-Reyn va Frislandiya hududlari Utrext yepiskopligiga kuch bilan birlashtirildi. Qarshi chiqqan feodallar qatl etildi. Natijada Niderlandiya davlatining taqdiri Utrext yepiskopligi bilan bog'landi.

German imperatorlari nafaqat yerlarni tortib olish balki bu yerlarning hukumat vakillarini tayinlash, yepiskop va abbatlarni saylash huquqiga ega edi. Mamlakatni din vakillari tomonidan boshqarish german imperatorlarining eng asosiy rejasini tashkil etardi. Davlat boshqaruvida nafaqat yepiskoplar balki niderland feodallarining ishtirokini ham ko'rishimiz mumkin. German imperatorligiga qilingan sovg'a salomlar ularga musodara qilingan yerlarning in'om etishi bilan tugardi. XII asrning boshlarida ya'ni 1122 yilda imzolangan

²¹ Городская жизнь в средневековой Европе. М, «Высшая школа», 1987. стр 5-10

²² История Европы. Средневековая Европа. М., 1992. Т. 2. стр 14-15

²³ Колесницкий Н. Ф. Особенности вассально-ленных отношений в Германии X-XIII вв. // Средние века. М., 1969. стр 81-83

Vorms konkordati papa va qirol munosabatlari o'rtasiga sovuqchilik tushishiga sabab bo'ldi. Bu vaziyatda papalarga hokimiyatni berib qo'yishni istamgan imperatorlar mahalliy hokimlar gersoglarni ularga qarshi chiqishga davit etdi.

Yangi qonun qoidalarga ko'ra yepiskoplar papa tomonidan tayinlanishi kerak edi. Papa tomonidan tayinlangan yepiskoplar imperatorlar buyrug'iga bo'ysunmasdi. Bu esa o'z navbatida German imperatorlarini g'azabga keltirdi. German qirollarining Gogenshtafuenlar (1138-1245) sulolasi vakillari papalik bilan olib borgan kurashlari sulolaning mag'lubiyati bilan yakun topdi. Kurashlar davom etayotgan bir paytda mahalliy knyazlarning nufuzi oshib bordi. Ularning kuchayishiga len mulklari sabab bo'ldi. Germanlarda len qonuni bo'yicha bu mulklarni ko'p vaqt davomida qirol qo'lida saqlash mumkin emasdi. Tortib olingan yoki bo'sh yotgan yerlar senyorning o'zi tomonidan vassallariga bo'lib berilishi kerak edi. Bu esa kuchsizlanayotgan davlatda vassallarga qo'l keldi. Bir qancha lenga ega bo'lgan graf va gersogliklar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ydi.

Imperiya asta sekinlik bilan katta yer mulklarga ega bo'lganlar qo'lida o'yinchoqqa aylana bordi. XIII asr o'rtalariga kelib Imperiya hududida yuzga yaqin knyazlik vujudga kelib, o'z mustaqilliklarini qonuniy ravishda e'lon qildi. Bu jarayonlar niderland yerlari uchun muhim ahamiyat kasb etardi. Ular mustaqil Germaniya tomon intildi. XI asrning oxirlaridan boshlab Niderlandiya mustaqil viloyatlar shakllana boshlagan edi. Frislandiyadan tashqari barcha shaharlar o'rta asrlarda vujudga keldi va shakllandi. Niderlandiyaning janubiy viloyatlarida Fransiyaning ta'siri sezilib turar edi. Shu sababdan bu hududda vujudga kelgan shahar markazlashish jarayonini boshlab yubordi ²⁴.

Shimoliy Niderlandiya shaharlari esa o'z suverenitetini e'lon qilib tarqoq holatda hayot kechirishni maqul topdi. Gollandiya va Geldern, Utrext yepiskopligi imperiyaning ajralmas qismiga aylanib bordi. Bu hududlarda feodal tartiblar saqlanib qolindi. Frislandiyada esa qaram dehqonlar bilan birgalikda jamoa yer egaligi ham mavjud edi.

²⁴ История Средних веков / Под. ред. С. П. Карпова...стр 142-148

Utrext. Ilk o'rta asrlardan bu shahar Niderlandiya yepiskopligi markazi hisoblangan. Utrext dastlab Niderlandiyaning ma'muriy markazi sifatida nom qozondi. Utrext qadimgi rimliklar qishlog'i o'rnida bunyod etilgan. Me'moriy yodgorliklardan roman-gotika sobori (XI—XV asrlar), gotika cherkovlari saqlangan. Shaharda har yili xalqaro yarmarka o'tkazilgan.

Utrext shahri markazining Reynga yaqin joyida mahallalari bo'lgan temirchi ustalar mehnat qurollari bilan bir qatorda antiqa shamdon, ayollar uchun pardoz buyumlari va ko'zgular, uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurol-aslaha, ot-ulov anjomlarini yasab ichki va tashki bozarga chikarib turganlar. Utrext va Frislandiyalik ustalar temir buyumlarni quyma va bolg'alash usulibida yasagan bo'lsalar, misgarlar mahsulotlariga bezak berishda roman naqsh usullaridan keng foydalanganlar. Bu shaharni qazish jarayonida topilgan idishlar xazinasini hududda misgarlik yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bu xazina XI asrga oid turli-tuman idishlardan, jumladan kata qozonlar, idishlar, shamdon ko'zalardan iborat.

IX asr oxiri X asr boshida Utrext Xristian madaniyatining yirik markaziga aylanib ulgurgan edi. Bu yerda papalikning markaziy mintaqalariga xos bo'lgan aqliy faollik avj olgani ta'kidlanadi. Niderlandiyada mavjud ko'pdinlilik sharoitlarida missionerlar mahalliy aholi bilan faol muloqotda bo'lish imkonini berdi. Ko'pgina shaharlar kabi savdogar-hunarmand aholi muhitida xristianlik dini shakllanishi sodir bo'lgan markaz bo'lib qoldi. Shahar aholisining o'rta doiralarida va uning ma'rifatli yuqori tabaqalarida majusiylilik g'oyalari yoyildi.

IX-XII asrlar davomida o'lka hunarmandlari ko'k, havorang shishadan qadahlar, turli shakldagi idishlar, kimyogarlarni foydalanadigan, kolbalar, grafinlar va pardoz-andoz buyumlarini g'oyat mohirlik bilan yasaganlar. Ayniqsa, Utrext yepiskopligi monastiridan topilgan shisha taqinchoqlar betakrorligi bilan ajralib turadi. Utrext shishasozlari G'arbiy Yevropada birinchilardan qatorida panjaralar uchun maxsus shishalarni tayyorlaganlar. Ularda badavlat zodagonlarning ov iti bilan yoki ovchilar to'dalarining oti ro'parasida ov itini ushlab turgan holatlari tasvirlangan.

XI asrdan boshlab Utrext va Brabantda idishlarni sirlash mukammal o'zlashtirilgan. Bu davr sopol idishlari, xususan, kosa, lagan, tovoq, ko'zalar yashil,

jigarrang va sarg'ish sirlarga bo'yalgan. Ba'zi idishlar oq ranga bo'yalib ustidan roman uslubida qora va jigarrang lotin yozuvlar bilan bezatilgan. Idishlarni bir qismi maxsus qoliplarda yasalgan. XI-XII asrlarda idishlarning turlari, ranglar jilosi yanada boyib, naqshlar ustidan yaltiroq bilan qoplana boshlaydi. Sirli ko'zalar bilan dong taratgan frizlik kulolar yasagan buyumlar nafaqat, Nidelandiya, balki Germaniya, Fransiya va Angliya bozorlarida ham xaridorgir bo'lgan.

Brabant — o'rta asrlardagi gersoglik. Brabant gersogligi mustahkam mudofaa devrolariga ega bo'lib o'z tarkibidagi grafliklarni Luven graflikiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1106 –yil Luven va Brabant landgrafi Gotfird I (1095-1139) imperatordan Quyi Lotaringiya gersogligini qabul qildi. Lekin bu vaqtga kleib Quyi Lotaringiya yerlari parchalanib ketgan. Bu bejizga emas edi chunki bi yerlarni qaytada egallash va markazlashtirish Gotfird I zimmasiga yuklandi. XII asrga kelib Quyi Lotaringiya atamasi istemoldan chiqib ketdi. Balki bu hududlar niderlandiyaliklar tomonidan Quyi yerlar deyila boshlandi. Gotfird I avlodlari davrida bu atama ularning qirolliklari nomiga qo'shib ishlatilardi. XIII asrdan boshlab Brabant gersogligi o'z hududlarini kengaytirib hozirgi belgiya-niderlandiya chegaralariga qadar cho'zildi. Shu sababdan hozirga qadar bu davlatlar yashovchi xalqlar har ikki xalqning o'z Brabanti bor deya hazil qilishadi

²⁵.

Brabant gersogligi tarkibidagi Leyden, Bryusel va Mexelen shaharlarida savdo-sotiq yuksak darajada edi. Don-dun mahsulotlarini yetqazib bergan bu shaharlar gersoglik tarkibida muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu o'z navbatida Brabant gersoglariga katta daromad keltirardi. Bundan xabardor bo'lgan davlatlarning hukmron sulolalari ular bilan do'stona munosabatda bo'lishga harakat qilardi. Limburg gersogligining merosi uchun olib borgan kurash (1283-1288) i unga katta shuhrat keltirdi. Limburg gersogligi Irmgard nomli gersoginiyaning befarzandliki sabab uning vafotidan so'ng, grafliklar uning mulkiga egalik qilish uchun kurash olib borishdi. 1288 –yil 5 – iyunda Brabant

²⁵ Пиренн А. Средневековые города Бельгии. М., 2001. стр 71-72

gersogi Ioann I (1267-1294) Vorringen yaqinida raqiblari ustidan g'alaba qozondi.

Natijada Limburg gersogligi Brabantga qo'shib olindi. Limburg hududi Reyn va Shimoliy dengizdagi savdo-sotiqni ta'minlab, bog'laydigan Kyoln-Bryugge shaharlariga ega edi. Dengiz savdo yo'lidan tushgan foyda ham Brabant gersogligi g'aznasi tomon yo'l oldi. Aynan shu vaqtdan boshlab Brabant gersogligi imperiyada mutlaqo mustaqilligini e'lon qilishdi.

Leyden. Niderlandiyaning g'arbiy qismidagi shahar. Janubiy Gollandiyaning Reyn daryosi deltasidagi bandargoh. Shahar qo'lyozmalarda ilk bor IX asrda qayd etilgan. XII—XVIII asrlarga oid me'moriy yodgorliklari saqlangan. Aholisi badiiy hunarmandchilik (mato va tur to'qish), metallga ishlov berish bilan shug'ullanadi. Shu davrdan hunarmandchilikni boshqa boshqa turlari jumladan, kemasozlik, sovun tayyorlash ham taraqqiy etgan. Bu yerda yasalgan katta-kichik kemalar Reyn va Maas bo'yida joylashgan shaharlar o'rtasida qatnab turgan. Shuningdek, zargarlik, gilamchilik, kunchilik va boshqa hunarmandchilik sohalari rivojlangan.

Shaharning iqtisodiy hayotida ichki va tashqi savdoning o'rni yuqori bulgan. Shahar xazinasiga tushadigan daromadning katta qismini aynan savdodan kelib tushgan foyda tashkil etgan. Bu davrda tovar ayirboshlash va boshqa oldi sotdi ishlari tanga pullar orkali bajarilgan. Ichki savdo asosan, mol ayirboshlash va qisman kumush tangalar vositasida olib borilgan. O'z navbatida shaharliklar o'z hunarmandchilik maxsulotlarini qishlok va qo'shni chorvador qabilalar talabini qondirganlar. Shaharliklar esa qishlok xo'jalik va chorva mahsulotlarini xarid qilganlar. Leyden shahrida joylashgan ibodatxonalar ochib o'rganilganda eski shahar xarobasi o'zining me'moriy tarixi va boy ichki ko'rinishi bilan ajralib turgan. Bu davrda Leyden g'arb tabobatida asab va tutqanok kasalliklariga qarshi ishlatiladigan dori moddasini savdo qilgan. Bundan tashqari bu moddadan G'arboy Yevropa xalqlari taom va ichimliklarga hush ta'mlik berishda keng foydalanganlar. Bu moddani uzoqlarga yetkazish ishlari bilan frizlik savdogarlar shug'ullangan ²⁶.

Geldern. Vorringen yonida bo'lgan jangda Imgradning turmush o'rtog'i Rud I (1271-1326) mag'lub bo'ldi. Brabant gersogligi bilan olib borilgan jang

²⁶ История Средних веков: В 2 т. / Под ред. С. Д. Сказкина и др... стр 151

natijasida Gelderning janubga bo'lgan yurishlari bir qancha vaqtga to'xtab qoldi. Geldernning rivoj topishi XI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bassenbergning Rurmond hududidagi yerlarini german imperatori aka-uka Rutgeru va Gerardu in'om etdi. Gerard (Gerard I nomi bilan yangi sulolaga asos soldi) Bassenberg sulolasidan bo'lgan ayol bilan nikoh tuzishi natijasida bu yer mulklar ham keyinchalik Geldern nomi bilan ataladigan bo'ldi. Uning hududlari Teysterbantdan Betyuve va Maas daryosigacha bo'lgan yerlarni qamrab oldi.

XII asr oxirlarida Geldern gersoglari Zyutfen hududini ham zabt etib o'zlariga "Zyutfen grafi" unvonini berishdi. Graflikning yerlari Utrext yepiskopligi hisobiga kengayib bordi. 1196 - yilda Velyuve hududlari qo'lga kiritildi. 1249 – yilda German qiroli va Gollandiya grafi Vilgelm II Geldern grafi Otto II ga Neymegan shahri va unga tegishli mulklarni hadya etdi. XII-XIII asrlar davomida Geldern graflari Rurmond, Arnem va Janubiy Frislandiya yerlarini birin ketin egallab oldi. Reynaud II (1326-1343) 1339 – yilda Gelderning to'rt qismini bir davlatga birlashtirdi. Ular tarkibida Neymegen (Betyuve, Maas, Vaal), Zyutfen grafligi, Velyuve va Yuqori Geldern (Venlo, Rurmond, Gelderning Germaniyadagi mulklari) bor edi. Lekin Geldern tarkibida mustaqil senorlar ham mavjud edi. Zyutfendagi Berg ova Neymendagi Battenburg mulklari shular jumlasidan. 1371 yilga qadar Geldern gersogligini Geldern-Bassenberg sulolasi boshqardi. Geldern merosi uchun bo'lgan kurash (1371-1379) dan so'ng Yulix (1423-yilgacha) gersoglari boshqardi ²⁷.

Frislandiya. Frislandiyaning taqdiri boshqa shaharlarnikiga nisbatan ancha farq qiladi. Bu shahar ko'p yillar davomida dushman quroli yonida bo'yin egmay o'zini mustaqil davlat sifatida bilardi. XI asrda Frislandiya markgraflik nomini olib uni Brynon sulolasi boshqarardi. 1089 – yildan boshlab bu sulolaning boshqaruv davri tugab mahalliy hokimiyat faqatgina imperator boshqaruvini tan olishini ma'lum qildi. IX-XII asrlar davomida frizlarning yerlarida 17 ta lenga ega bo'lgan imperator vasallari tashkil topdi. Frislandiya hududida feodal tartiblar ancha yengil ko'rinishda edi. Dehqonlar mehnatidan foydalanish gaqatgina monastirlar

²⁷ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 52-53

tomonidan amalga oshirilardi. Frislandiya o'z-o'zini boshqaradigan qishloq jamoalariga bo'lingan edi.

Bu jamoalar kichkina qishloq respublikasi edi. Ular bu yerlarni graflardan ijaraga olib ishlardi. XI asrdan boshlab Frislandiyaning qishloq jamoa yerlarida mahalliy qonunlar ishlab chiqilib, har bir dehqoning huquq va majburiyatlarini belgilab berdi. Bu qonunlar frizlarning milliy tilida yozilganligi bilan bu davrni o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Qishloq jamoalari Frislandiya hududida XVI asrning o'rtalariga qadar faoliyat yuritdi. Drente hududida qishloq jamoalarining ahamiyati oshib, bu yerda ular XVIII asrga qadar faoliyat ko'rsatdi. Jamoa yerlarida faoliyat ko'rsatayotgan dehqonlar kanallar qozish, ekinzorlarni suv bosishdan asrash, o'g'itlarni topish va ularni yerga qadash ishlarini ham bajarishi kerak edi. Jamoa tarzida bajarilgan mehnat natijasida yerdan mo'l-ko'l hosil olish yo'lga qo'yildi. Bu ish bilan muntazam ravishda shug'ullanish frizlarni mahoratli dehqon, suv taqsimotchisi, suv o'lchovchi, yerni mileoarativ holatini tekshiruvchi kasblarini vujudga keltirdi.

Frislandiya hududida shakllangan taniqli birliklardan biri Yettita Dengizbo'yi yerlarining ittifoqi edi. Bu ittifoq frizlarning barcha grafliklari ustidan nazoratni o'rnatgan edi. Har bir graflikka nazoratni o'rnatish uchun mazkur ittifoq tomonidan landtag – boshqaruv organi yuborilgan. XI-XII asrlarda landtag mamlakat boshqaruvining ajralmas qismiga aylandi. Frizlar jamiyatida fuqarolar amal qilishi zarur bo'lgan barcha qonun qoidalar Friz haqiqatlarida belgilab qo'yilgan edi. O'rta asr Yevropa taixini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarni bizgacha yozma manba sifatida olib kelgan. Ushbu manbadan bizga o'sha davrdagi mulkiy munosabatlar, ijtimoiy tuzum, jamiyatdagi munosabatlar, endigina paydo bo'layotgan feodalizmning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari darajasi haqidagi va ko'plab boshqa ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Yana ularning muhim jihati, ko'pchiligi bizning davrgacha yetib kelgan. Bu manba friz tilida yozilgan bo'lib, ularning eng oxirgisi XIII asrga tegishlidir.

Groningen. XI asrdan boshlab Frislandiya tarkibidagi bir qancha hududlar o'zlarining mustaqil yerlarini boshqarish istagi mavjudligini markaziy hokimiyatga

bildirdi. Bulardan birinchi bo'lib Frislandiya g'arbidagi Kennemer viloyati bo'ldi. Sharqiy Frislandiyada Groningen va Drente viloyatlari avtonomiyaga ega bo'ldi. Sharqiy Frislandiyadagi bu viloyatlar boshqaruvi Utrext yepiskopligi qo'lida qoldi. Bu viloyat boshqaruvchilari burggraf deb atalar, ulardan soliqlarni yig'ish, janglarda qo'shin bilan ishtirok etish, sud jarayonlarini amalga oshirish talab etilardi. Undan tashqari ayrim mamlakatlar (Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Avstriya) mahalliy boshqaruv organlarida oliy mansabdor shaxs hisoblangan. Burggraflar mazkur organlarda yetakchi rol o'ynaydi: markaziy hukumat vakili hisoblanadi, munisipal (mahalliy) xizmatchilarni ishga tayinlaydi va ishdan bo'shatadi; byudjet tuzish va uni bajarish ishlariga boshchilik qiladi. Burggraflar Germaniyaning ko'pchilik yerlarida munisipal kengashlar yoxud bevosita aholi tomonidan saylanadi (Germaniyaning Bavariya va BadenVyurtemberg yerlarida) yoki bevosita hukumat tomonidan tayinlanadi. Quyi Saksoniya va Shimoliy German yerlarida asosan vakillik vazifalarini bajaradi.

Qo'lida mukammal kuch to'play bilgan burggraflar asta sekinlik bilan mustaqil siyosat olib borib, papalarga bo'ysunmadilar. 1227 – yilda Drente burggrafi Rudolf Otto II ning yepiskopini Overeyssel yonida mag'lub etib, unga qarshi chiqdi. Urush vaqtida Otto II jangda jarohat olib vafot etdi. Shundan so'ng Drente shahri yepiskoplikka bo'yunmasligini bildirib, yepiskopni quvib yubordi. Bu mag'lubiyat xabari qo'shni viloyatlarga yetib bordi. Asta sekinlik bilan Groningen, Gor, Almelo va Eyssele o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. XIV asr boshlarida Groningen turli xildagi ton mahsulotlarini sotish bo'yicha savdo sotiqa Frislandiyaning markaziy bozoriga aylandi. 1361 – yildan boshlab doimiy ravishda umumiy friz landtagi o'z faoliyatini olib bordi. Dehqonlarni o'z tarkibida to'plagan friz jamoalari sekinlik bilan Groningen hukumati vakillari bilan ularga suverinetet beruvchi hujjatlarni imzoladilar. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligi oshishiga va viloyat iqtisodiyotning o'sishiga turtki bo'ldi ²⁸.

Overeyssel. Niderlandiyaning g'arbiy hududlarida shakllangan viloyatlardan yana biri Overeysseldir. XIV asrdan boshlab bu hududga friz dehqonlari bo'sh

²⁸ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 54-55

yotgan yerlaga kelib o'r'nasha boshladilar. Bu hudud uchun kurash Utrext yepiskopligi va Geldern gersogligi o'rtasida vujudga keldi. G'alaba yepiskoplik tomonida bo'ldi. Eyssel hududida istiqomat qilgan ko'pgina zodogonlar yepiskoplik bilan madaniy aloqalarni bog'lagan edi. Bu davrlarda Overeyssel ma'muriy boshqarishsh markazi edi, aholisi gavjum bo'lgan shahar bo'lib, aholining asosiy qismini savdogar-hunarmandlar tashkil qilgan. Overeysselning ko'chmanchilar bilan chegaradosh konli tog'larga yaqin joylashganligi sababli, bu yerda hunarmandchilikning turli sohalari rivojlandi. Hunarmandlar tayyorlagan maxsulotlar faqatgina shahar aholisi o'rtasida emas, qo'shni viloyatlar o'rtasida ham sotilardi.

Shaharda ko'plab do'konlar, savdo rastalari, bozorlar mavjud edi. Dukonlarni ko'pchiligi bir vaqtning o'zida xam do'kon, ham ustoxona hisoblanardi. Korxonaga o'xshash ustoxonalarda mahsulotlar tayyorlanib, ular asosan boshqa joyda sotilardi. Metall, zargarlik va sopol buyumlar, kiyim-kechak qurollar do'konlarda sotilgan. Ayrim hollarda shu yerda tayyorlangan. Odatda hunarmandlar yashaydigan mahallalar hunarmandlik nomi bilan atalib, shaharda kiraverishda –taqachilar, shahar markazida zargarlar, shahar chekasida misgar va ko'nychilar, oqar suvlarga yaqin joyda gazlamalarga tamg'a bosuvchilar yashaganlar.

Gollandiya. Garbiy Frislandiyaning Kennemer shahrini boshqargan sulola vakillari Karolinglar davridanoq o'zining mustaqil siyosat yuritshi bilan qo'shni yerlarga ibrat bo'lgandi. Bu viloyat asoschisi graf Gerulf normanlarga qarshi kurashda bir qancha janglarda g'olib bo'lib, kuchli qo'shin to'plashga muvaffaq bo'lgandi. Gollandiya hududida miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida, asosan, keltlar yashagan. Milod boshlarida bu yerlarga german qabilalaridan frizlar va batavlar ko'chib kelgan. Rim imperiyasi bosqini davrida (miloddan avvalgi I asr— milodiy IV asr) sakslar va franklar (III—IV asrlar) kelib frizlar va batavlar bilan aralashib ketganlar. Mana shu qabilalar negizida tarqoq viloyatlarning uyushuvi XIV—XV asrlarda golland elatini shakllanishiga olib kelgan, bu hudud esa Gollandlarning an'anaviy turar joyi Niderlandiya deb

nomlana boshlagan. Qishloq xo'jaligida, asosan, chorvachilik, gulchilik, dengiz bo'ylarida baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Bog'dorchilik va gulchilik soxasida qadimdan jahonga mashhurdir.

Gerulf va uning avlodlari X-XI asrlarda Reyn va Quyi Maas yerlari hisobiga o'z maydonini kengaytirib bordi. Yerlarga egalik qilish va uni boshqarish masalasida Utrext yepiskopligi bilan ko'pgina nizolar kelib chiqdi. Shunday janjallardan birida yepiskop G'arbiy Frislandiyada joylashgan Kennemer mulklarini musodara qildi.

Gollandiya grafi unvoni bilan faoliyat yuritgan ilk shaxs Dirk V (1061-1091) bo'ladi. U 1076 – yilda unvonni qabul qilib Gollandiya grafi etib tayinlanadi. Uni bu yo'lda o'gay otasi Flandriya grafi Frislandriyalik Robert qo'llab – quvvatladi. Bu yordam evaziga Zellandiya yerlari Flandriya grafligiga taqdim etildi. Graf Vilgelm II (1234-1356) boshqaruvi davrida uning Flandriya bilan munosabatlari yomonlashdi. Bu holat uni germanlar bilan yaqinlashtirdi. 1247 – yilda reyn hududi knyazlari tomonidan Vilgelm II German qiroli etib saylandi. Bu o'z navbatida Niderlandiya gersoglari o'rtasida uning obro'si oshishiga sabab bo'ldi.

Ajdodlari tomonidan yo'qotilgan Zellandiya yerlarini qaytarib olish uning birinchi ishi bo'ldi. Zellandiya yerlarini Gollandiya tarkibiga qo'shib olgan Vilgelm II bundan uni “Gollandiya va Zellandiya” grafi sifatida murojaat qilishlarini talab qildi. Utrext yepiskopligining kuchsizlanishi Gollandiya graflarining uning yerlari uchun kurashishga undadi. Endi Gollandiya gersogligi o'z yerlarini Frislandiyaga qadar kengaytirishi mumkin edi. Lekin Vilgelm II ning niyatlari amalga oshmadi. 1256 – yil yanvarda Shimoliy Gollandiyaning Xoxvaude yerida frizlar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Uning davomchisi Floris V (1256-1296) davrida yuksak cho'qqilar zabt etildi. Dastlab u G'arbiy Frislandiya yerlaridagi hukmronligini mustahkamlab, XIII asr oxiriga qadar Zyoyderze ko'rfaziga qadar bo'lgan yerda yangi chegarani qurib bitqazdi.

Keyinchalik Floris V Frislandiya markazidan Teksel orollariga bo'lgan yerlarni zabt etib, o'zini “Gollandiya grafi, Frislandiya hukmdori” deb atay boshladi. Unga qadar uning ajdodlari bunday cho'qqini zabt etmagandi. Kuchga

to'lgan Floris V yepiskopga qarshi borib unin tarkibidagi Amstel daryosi bo'yidagi hududlarni bosib oldi. Gollandlarning ko'pgina yerlari janubga qarab siljib bordi. 1230 – yilda Floris IV egallab olgan janubiy yerlarda ovchilik uyini tashkil qildi. Bu hududlarning tabiati betakror go'zal bo'lgani sababli ham bu yerlarda dam olish insonga huzur bag'ishlardi. Bu an'anani davom ettirgan Vilgelm II 1242 – yilda o'ziga atab hashamatli qasr qurdiradi. Bu qasr qurilishining tugashi Floris V davriga to'g'ri keladi. 1280 – yilda Floris V qasr tarkibiga Ritsarlar zalini qo'shib, niderland me'morchilik san'atiga yangi uslubni olib kiradi. Qasr XIII asr Gollandiyasi uchun yangi Binnenxof ansamblini vujudga keltirdi.

Gaaga. Niderlandiyadagi shahar, Shimoliy dengiz sohilidagi bandargoh. Qirol saroyi va hukumat qarorgohi. Janubiy Gollandiyaning ma'muriy markazi. Kanallar va to'g'on tarmoqlari orqali Reynning quyi oqimidagi Rotterdam bilan, Amsterdam va mamlakatning boshqa shaharlari bilan bog'lab turgan. Gaaga asosan ma'muriy va siyosiy markazdir. Shahar dastlab XI asrga oid tarixiy manbalarda tilga olingan.

Binnenxof atrofida savdo-sotiq ishlari avj olib, asta sekinlik bilan bu yerlarga graflar idorasi ko'chirib keltirildi. Bu yerda shakllangan aholi yashash joyini Di Xage (maysazor) deb atashgan. Bu nom keyinchalik manbalarda Gaaga nomi bilan keladi. Gaaga graflikning siyosiy va madaniy markaziga aylandi.

Gaaganing aholisi bir qancha shaharlar aholisiga qaraganda ko'pchilikni tashkil etardi. Qonunlar tizimida qadimiylik saqlanib qolib, uning shakllanishida Rim qonunchiligi ta'siri bo'ldi. Lekin golland xalqi an'analari va odatlariga ko'proq murojaat qilindi. Qonunlarda yer egaligi, mulkiy munosabatlar, mahalliy xalqlarning german aholi bilan munosabatlari va boshqa qonunlarga urg'u berilgan. Me'moriy yodgorliklaridan gotika uslubida qurilgan Ridderzal (XIII asr), Tribunal (XIII asr) saqlangan. Gaagada Qirollik nafis san'at akademiyasi va Mauristxeys (Qirollik rasmlar galereyasi) joylashgan ²⁹.

O'z hududlarini kengaytirish maqsadida yarim suv bosgan yerlarni qaytadan o'zlashtira boshladi. Chunki bunday hududlar uchun markaziy hokimiyatga soliq

²⁹ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 55-58

to'lanmasdi. Mahalliy hukumat bu hududdan suvni olib chiqish maqsadida ariqlar qazadigan va to'g'on quradigan ishchilarni yolladi. Natijada suv chekingan bu yerlarda dehqonlar urug' qadab dehqonchilik qilishdi.

O'rta asrlarda Niderlandiya zodogonlari orasida to'g'onlarni bunyod etuvchi to'g'on xo'jaliklari vujudga keldi. To'gonlar qurilishiga boshchilik qiladigan to'gon grafliklari egallangan yerlarning mustaqil hokimiga aylanib bordi. Bu graflar boshqa grafliklar orasida obro'ga ega bo'lib, hukumat vakillarini o'zi tayinlashi, senyor va dvoryanlar bilan hisob kitob ishlarini olib borardi. O'z yoniga maxsus ishchilarni to'plagan graflar suvni ko'tarilishini, to'g'onlar faoliyatini, ko'prik va yo'llar qurilishini nazorat qilardi. Niderlandiya hududida ularning nufuzi oshishiga faqat bir sabab ya'ni dehqonchilikning unumdorligi ularga bog'liq edi. Chunki dalalarni suv bosishidan asray olgan dehqon yaxshi hosilga umid qilsa bo'lardi. Ayniqsa Shimoliy Niderlandiya aholisi ularning yordamiga muhtojlik sezardi. Yog'ingarchilikning ko'payishi va suv toshqinlarining tet-tez yuz berishi bu yerda to'g'onlar va suv chiqargichlar bunyod etishga turtki bo'ldi.

Rotterdam va Amsterdam . XIII asr oxiriga kelib Niderlandiyaning daryo, ko'l, dengiz va orollar bilan o'ralgan hududlari maxsus suv uskunlari va inshootlari bilan ta'minlandi. Aynan shu davrdan boshlab suv toshishi vaxfi bartaraf etildi. Daryo va dengizlarga yaqin hududlarda yangi shaharlar shakllandi. Ular tarkibida Amsterdam Rotterdam va Sxidama shaharlari bor edi.

Rotterdam (gollandcha - Rott daryosiga qurilgan ko'prik) - Niderlandiyaning g'arbiy qismidagi shahar, Reyn daryosi deltasining shimolida. Kanal orqali Shimoliy dengiz bilan bog'langan. Shahar XIII asrdan ma'lum. Me'moriy yodgorliklardan gotika cherkovi (XV asr) cherkovlar, tegirmonlar saqlangan. Rotterdamda milliy va xalqaro savdo pul aylanmalari bajarilardi.

Olis o'lkalardan keltiriladigan xomashyo asosida to'qiladigan chodirlar va to'quvchilik hunarmandligi yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Rotterdamga jun, gazmol, kiyim-kechak, charm buyumlar, egarlar Amsel daryosi orqali olib kelingan va sotilgan. Rotterdam baliqchilari mashhur bo'lgan. IX-X asr boshlaridayoq lotin xati bilan chekilgan yozuvlar hujjatlarda saqlanib qolgan. Bu

vaqtda gurkirab rivojlangan lotin xati ommalashib ketgan va keyinchalik yozuvlarga o'xshash belgili bezaklar ham rasm bo'lgan. Jonivorlar-hayvon, baliq, qush va ertaknamo jonivorlar tasviri tushirilgan idishlar ijrosi va syujet boyligi bilan noyob hisoblanadi. Mahalliy hunarmandlar sopol idish yasash texnologiyasini eng yuqori darajaga ko'tardilar. Bezak boyligi va rang-barang kabi idishlar sifati shuni ko'rsatadiki, IX-XI asrlar Rotterdam maktabi Niderlandiyadagina emas, balki butun G'arbiy Yevropada haqli ravishda yetakchi o'rinlardan birini egallagan.

Issiq hammomlarni rim madaniyatining ajralmas uzviy va uning o'ziga xos belgisi deb bilamiz. Bu uerga ko'chib kelgan xalqlar hammomlar qurishga katta e'tibor beradi. Niderlandiya hududida saqlangan va rivojlangan hammomlar Rim an'analari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, Niderlandiyaning g'arbiy hududlarida ular aholi o'rtasida yangilik sifatida ko'rilgan. Bu asrda shu binolar qurilishining ishlab chiqadigan andazasi qo'llanilgan va ularning qurilishi IX asr oxiri-X asrda ancha rivoj topgan. X-XII asrlarda issiq hammomlar Rotterdam va Amsterdamda ham shahar uylarining shartli hayotiga aylangan. Yaqin Sharqdan olib kelingan boy bezaklar va mozaikalardan keng foydalanilgan.

Bu vaqtda shahar yanada ravnaq topadi. Gollandiyaning hukmron sulolariga mansub tangalar, kulrang gildan dastgohlarda yasalgan idishlar: xum, xumcha, tuvak, sopol quvur parchalari arxeologlar tomonidan topib o'rganilgan. Shahar kengayib bordi, uning suv chekingan yerlarida yangi manzillar paydo bo'ldi. Pul muomalasi ham keng ko'lamda rivojlanib borgan. Lekin mahalliy bozorlarda davlat tomonidan zarb qilingan to'la qiymatli tangalar bilan bir qatorda past sifatli mis tangalari ham muomalada bo'lgan. Bunday tangalar Amsterdamda ham topilgan.

Dastlab Amsterdam shahri o'rnida baliqchilar qishlog'i mavjud edi. Bu yerda aholining ko'payishi Amstel daryosiga to'g'onlarning o'rnatilishidan keyin yuz berdi. 1270 yilda Amstelda qurib bitqazilgan to'gon suv yo'lini to'sdi. Yuzaga kelgan quruqlik ko'chib kelgan aholi tomonidan Dam deb atala boshlandi. Shu tariqa uning ilk nomi "Amstelledame" (Amstel daryosidagi to'g'on) vujudga keldi.

Amstel daryosining quyilish yerida joylashgan. Amstel daryosi va uning tarmoqlari hamda ularni tutashtirib turgan kanallar shaharni qismlarga bo'lib yuborgan. O'rta asrlarda 30 dan ortiq ko'prik mavjud bo'lgan. Shaharning qadimiy uylari yirik qoziqlar ustiga qurilgan. Shahar yilnomalarda dastlab 1275 yilda tilga olingan. XV asrda savdo va sudxo'orlik markaziga aylangan. Amsterdam haqidagi ilk ma'lumotlar Floris V davridan uchraydi. Floris V 1275 – yil 25 – oktabrda Amstelning yangi aholisi uchun soliqlarsiz savdo qilish huquqini berganligi haqidagi hujjatlar saqlangan. 1300 – yilda Utrext yepiskopligi tomonidan shahar xartiyasiga qabul qilindi. Yillar davomida Amstelledame qisqarib Amsterdam deb ataladigan bo'ldi. 1317 – yilda Floris V ning merosxo'ri graf Vilgelm III Amsterdam va unga qarshli yerlarni Gollandiya grafligiga qo'shib oldi. Ko'pdan-ko'p tarixiy va me'moriy yodgorliklari, jumladan cherkov binolari (XIII—XVII asrlar), o'nlab maktablar (Gollandiya tasviriy san'at maktabi) mavjud.

1299 – yilda Gollandiya grafligi Gennegau grafligi bilan ittifoqlik shartnomasini imzoladi. Bu shartnoma unga harbiy kuch qudratni taqdim etdi. Gennegauni boshqargan Avenov sulolasiga Gollandiyaning befarzand grafi Ioann I mulklari meros bo'lib qoldi. Natijada Avenov sulolasi vakillari 1323 yilda Parij shartnomasini imzolab, Gennegau va Gollandiya yerlarini birlashtirishdi. Bu shartnoma Flandriya hukmdori Lyudovik Neverski va Vilgelm III o'rtasida imzolanib Zellandiya taqdiri ham hal etildi. Zellandiyaning Flandriyaga yaqin hududlari Flandriya dengizbo'yi deb ataladigan bo'ldi.

Gollandiyada davlat boshqaruv tizimining monarxiya tuzumi shakllanib, mamlakatni birlashtirish g'oyasini ilgari surdi. Gollandiya graflari qo'shni knyazlar bilan katta foyda keltiradigan shartnomalar imzolashga muvaffaq bo'ldi. Chegara hududlarida yuzaga kelgan nizalarni bostirishga va hakamlik vazifasini o'tashga ham grafliklar davogarlik qildirdi. Gollandiya nafaqat Niderlandiya tarkibida balki Butun G'arbiy Yevropada muhim rol o'ynay boshladi. Bunga asosiy sabab Bilgelm III ning birinchi qizi 1324 – yilda Muqaddas Rim imperatori Lyudovik IV Bavarskiga, ikkinchisi 1328-yilda Angliya qiroli Eduard III ga turmushga chiqdi.

Bir necha yillar o'tib golland va flandriya grafliklari o'rtasida yuzaga kelgan nizo tufayli Gollandiya yuz yillik urush (1337-1453) da Angliya tomonida turib jang qildi. Bu urush uning katta siyosiy maydondagi o'rnini belgilab berishi kerak edi. 1214 – yilda Buvin yonida bo'lib o'tgan jangdan so'ng Flandriya graflari Fransiya davlatini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Fillip IV Chiroyli bilan bo'lib o'tgan janjallar esa bu hududlarda fransuz monarxiyasining nufuziga qarshi kurashish zarurligini ko'rsatib berdi.

Har bir qo'shni yerlar hisobiga boyishi orzusida bo'lgan alohida feodal guruhlar o'rtasidagi doimiy harbiy to'qnashuvlar XII-XV asrlarda Niderlandiya davlatini to'la bosh boshdoqlikka va ko'plab mayda mulklarga parchalanishiga sabab bo'ldi. Ko'plab oddiy va muhtasham qurilishlar XIV asrda tezlashdi. Lekin o'sha davr obidalaridan ozginasngina bizgacha yetib kelgan ³⁰.

Shunday qilib X-XIV asrlar Gollandiya uchun shaharlar va shahar hayotining keskin ko'tarilish davri bo'lgan edi. Gollandiya-Gennegau, jumladan, hunarmandchilnk va savdo, jamoatchilik, ma'naviy va madaniy hayotining shiddatli rivojlanishi, shahar o'qimishli qatlamining tarkib topgani bilan izohlanadi. U G'arb madaniy hayotida jonli ishtirok etgan va Xristian ruhoniylari, olimlari va shoirlarini yetkazib bergan.

2.2. Niderlandiya shaharlarining G'arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan savdo va diplomatik aloqalari.

Niderlandiya janubidagi viloyatlarning rivojlanishi jarayoni ancha tezkor kechdi. Flandriya va Brabant hududida ilk manafakturalar vujudga kelib ular tomonidan yupqa movut va teridan kiyimlar ishlab chiqarildi. Manafakturalarning rivojlanishida Angliya va Ispaniyaning hissasi sezilib turdi. Ichki savdoda asosiy bandargohlardan biri Bryugge edi. XIII asrda Brabant gersogligining shaharlari: Luven, Bryussel, Antverpen va boshqalari savdo-sotiq ishlariga tortildi. Ularda gazlama, attorlik, zargarlik va charm mollarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu vaqtda Brabant va Lesk yepiskopligi qo'l ostida bo'lgan Mastrixtning ham rivoj

³⁰ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 58-59

topishini kuzatishimiz mumkin. Asta sekinlik bilan shahar kengayib Mastrix va Limburg 1204-yilda shahar xartiyasi unvonini qo'lga kiritdi.

Janubiy Niderlandiyaning boy va mashhur shaharlari: Ipr, Gent, Bryugge, Lej kabilar boshqa shaharlarga nisbatan ularda o'z-o'zini boshqarish huquqini erta qo'lga kiritgan edi. Shu sababdan ham bu hududlarda o'rta asr shaharlariga xos bo'lgan sex va gildiyalar vujudga keldi. Gildiyalar olib sotar savdogarlarni birlashtirib mamlakat tashqarisiga pullardi. Kosib-hunarmandlar sexlarni tashkil qilib o'z mahsulotlarini yirik shaharlarga borib sotardi. Sexlar ichida movut va kiyim ishlab chiqaruvchilarining daromadi boshqa sexlarga nisbatan ko'p edi. Bular orasida Brabant tashkil topgan Brabant movutchilari ligasi butun mamlakatni movut mahsulotlari bilan ta'minladi. Shu vaqtdan boshlab movet ishlab chiqaruvchi sexlar Brabant ligasi atrofida birlashdi.

Niderland Sexlarning ta'siri hatto Shimoliy Italiyada ham sezilib turdi. 1338-1345 yillar davomida Gent shahrida istiqomat qiluvchi movutchilar bir necha marotaba qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonlarga Yakob van Artevelde boshchilik qildi. 1382 – yilda esa uning o'g'li Filipp Sex yetakchisiga aylandi. Bundan tashqari shaharlar sexlari o'rtasida yuzaga keladigan janjallar graflar tomonidan qattiq jazolar tayinlanishiga olib keldi.

XIII asr oxirlariga kelib Niderlnadiya shimolidagi viloyatlarining iqtisodida o'sish suratlari kuzatildi. Hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi Geldern va Overeyssel shaharlarida yaqqol nomoyon bo'ldi. Ularni qo'llab-quvvatlagan mahalliy hukumat vakillari markaziy hokimiyatda mustaqillikni talab qila boshladi. Hunarmandchilik mahsulotlarini sotish uchun shahar aholisi chegara hududlarni bosib o'tishga to'g'ri kelardi. Boshqa gersoglarda mahsulotini pullash uchun aynan o'zi yashayotgan gersoglik ruxsatnomasi talab qilinardi. Bu esa o'z navbatida pulga borib taqalardi. Olingan foydaning 2/3 qismi soliqlarni to'lashga ketardi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan shaharlar esa tashqi gersogliklar bilan shartnoma tuzish huquqini qo'lga kiritardi ³¹.

³¹ Городская жизнь в средневековой Европе...стр 155-156

Gollandiya shaharlarida Zirikze (1223), Dordrext (1230), Xarlem (1245), Rotterdam (1299) va Amsterdam (1300) shaharlari xartiyaga a'zo bo'lib kirdi. Neymegen shahri esa xartiyaga qabul qilinib (1230), imperiya shahri degan unvonga sazovor bo'ldi. Vujudga kelgan shaharlar niderland xalqining siyosiy hayotiga ancha ta'sir o'tqazdi. Shaharlarning o'sib borishi graf va gersoglarning bir-biriga nisbatan ishonchsizligi oshishiga sababchi bo'ldi. Senorlarning mahalliy boshqaruvchilarga nisbatan adovati oshib bordi. Shaharlarda faoliyat ko'rsatayotgan saylov organlari shaharni boshqaradigan magistrate idorasiga aylandi. Bu hol dastlab Gollandiyada sodir bo'ldi. Bu yerda jamoat tartibi, moliya, mudofaa, shahar idoralari boshqaruvini bajaruvchi Burgomistrlar, markaziy hokimiyatni o'z qo'llarida to'play boshladi.

Shaharni boshqarish burgomistrlarning o'ziga og'irlik qilardi. Shu sababdan ham ular o'z atrofiga shahar ziyolilari va zodogonlarini to'plashga muvaffaq bo'ldi. Shimoliy Niderlandiyada bunday boshqaruv tizimi o'rnatilgan shaharlardan biri Gollandiyaning Dordrext shahri edi. XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida imztiyoz va omborlarga egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Savdo mollarini Yevropaning turli nuqtalariga yetqazib berish huquqi unga katta daomad keltirdi va iqtisodini yuksaltirdi. Reyn, Maas, Vaal, Mervede va Lek daryolari bo'ylab savdo mollari o'z egalariga yetqazib berilgan.

Bolتيqbo'yi o'lkalaridan don mahsulotlarini import qilishni Gollandiya gersogligi boshlab berdi. Import qilingan don mahsulotlari aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishini yaxshiladi. Bu ishni yaxshi uddalagan va daryo savdo yo'llaridan yaxshi xabardor bo'lgan gollandiyalik savdogarlar don savdosida yakkahokimlik qilishdi. Oradan biroz vaqt o'tib Zyoderze ko'rfazida ham gollandiyalik don savdogarlari o'z do'konlarini ochishga muvaffaq bo'ldi. Amsterdam shahri Gamburg va Dordrext shahridan pivo mahsulotlarini daryo yo'li orqali Bryuggega yetqazib berardi. Gollandiyaning Amsterdam va Dordrext shaharlaridan tashqari Enkyoyzen va Xorn, Zellandiyada esa Middelburg bandargohlari ham ichki va tashqi savdoda faol edilar.

XIII asr davomida Yevropa uchun muhim mollarning ko'pchiligi Reyn-

Maas yo'nalishida o'tganini kuzatishimiz mumkin. Bu hududlarda joylashgan Overeyssel shaharlarining rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Reyn hududidan chiqqan kemalar Germaniya shimoliga qadar bo'lgan bandargohlarga mahsulotlarni yetqazib berardi. Eyssel hududida joylashgan Xarderveyk, Elburg, Deventer, Zvolle va Kampen shaharlari qizg'in savdo aloqalariga tortildi. Muhim savdo markazlari hisoblangan bu shaharlar Ganza ittifoqiga a'zo bo'lib kirishdi.

XIV-XVI asrlarda Lyubek boshchiligidagi bo'lgan shimoliy nemis shaharlarining savdo ittifoqi ganzaga birlashdi. XI-XII asrdagi nemis savdogarlarining vorisi sifatida vujudga keldi. Nemis savdogarlari Shimoliy va Sharqiy Yevropa savdagorlar nisbatan zaif bo'lgan sharoitda nemislarning slavyan mamlakatlarining mustamlakaga aylantirish sohasidagi muvaffaqiyatlardan foydalanib va nemis ritsarlik ordenlarining harbiy kuchlariga olgan edilar.

XIII asrning boshlarida Shimoliy nemis shaharlarining ayrim guruhlarini, boshqa mamlakatlarda savdo imtiyozlarini qo'lga kiritdilar va u yerda (avvalo Golland, Visbi shahrida) o'z kontoralarini asosladilar, bu yerdan nemis savdogarlari Novgorodga kirib keldilar.

XIII asrning ikkinchi yarmida Shimoliy va Boltiq dengizlari o'rtasida qo'ltiq bo'ylab o'tadigan yo'lni himoya qilish va birgalikda pul chiqarish uchun Lyubek, Gamburg, Lyuneburg, Shtralzund va boshqalar o'rtasida bitim tuzildi. 1356 yili «nemis Ganzasi» degan nomni oldi. 70 shaharni birlashtirgan ittifoq 1367 yilda shaharlarning birinchi umumiy s'ezdida uzil—kesil shakllandi.

Ganza shaharlarida iqtisodiy hayotning negizi asosan savdoda bo'lib, hokimiyat savdogarlar patritsasi qo'lga o'tgan edi. Ittifoq chet ellar bilan savdoni monopolizatsiya qilibgina qolmay, patritsiylar hukmronligini ham saqlar edi. Ganza mustaqil siyosiy organizmga aylanib, Germaniya imperiyasining tarkibiy qismlaridan bo'lib qoldi. Uning qudrati Daniya bilan urushda (1367– 1370) namoyon bo'ldi, bu urush Ganzaning to'la g'alabasi bilan tugallandi. Bu - Ganzaning eng ravnaq topgan davri bo'ldi ³².

Uning tanazzuli XV asr o'rtalarida boshlandi. Ganza shaharlarida sex

³² Городская жизнь в средневековой Европе...стр 156-158

hunarmandlarining qo'zg'olonlari ko'tarildi. Ganzaning ayrim a'zolari o'rtasida raqobat kuchayib, bu narsa Germaniyadagi mustahkamlanib olgan hududiy knyazlarga Ganza shaharlarini buysundirishga imkon berdi, natijada turli viloyatlardagi Ganza shaharlari o'rtasida aloqa zaiflashib qoldi. Angliya va Niderlandiyada sanoat va savdoning o'sishi ularga Ganzada ustunlik qilish imkonini yaratdi.

Gollandiya va Overeyssel shaharlari sir, yog', movut, sovun, piva, seld balig'i, qurol-aslahalar, prox, tuzlangan baliq, teri, quyon terisi, non, vino, sala, go'sht, metal va tuz savdosini yo'lga qo'ydi. XIV asr boshlaridan G'arbiy Yevropada xususan Niderlandiyada Dengiz va baliqchilik savdosi muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Niderlandiyaning Shimolida Shimoliy dengiz bo'ylarida Gollandiya va Zellandiya dengizchilar baliqchilik bilan shug'ullandigan kemalari sonini oshirdi. Bu ikki davlat Ganza ittifoqi davlatlaridan o'zib ketishni o'z oldilariga maqsad qiladi. Ularning tarkibiga keyinchalik Frislandiya haq qo'shiladi. Dengiz savdosining o'sib borishi natijasida daryolarda savdo qiluvchi kemalar kasodga uchray boshladi. Bu sharoitda Shimoliy dengiz qirg'oqlariga yaqin joylashgan Amsterdam va Rotterdam shaharlari dengiz savdosi oshib bordi.

XIV asr Niderlandiya shimolida joylashgan Leyden, Dordrecht, Amsterdam shaharlarida movut ishlab chiqish suratlari bir necha barobarga o'sdi. Xorn, Rotterdam, Amsterdam shaharlarida esa ulkan kemalar qurish ishlari boshlab yuborildi. Shimoliy Niderlandiya sexlari janub sexlariga nisbatan sekinlik bilan taraqqiy etdi. Sexlarning barcha sohalar bo'yicha to'liq ishlab chiqaruvchi xo'jalikka aylanishi XIV asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi.

Ularning to'liq mustaqil faoliyat yuritishiga magistrat va savdogarlar to'sqinlik qilardi. Sexlarning yuksalishi ularni kelajakda mustaqil hududlarga aylanishiga olib kelardi. Buni istamagan mahalliy hukumat vakillari ularga qarshi antisex siyosatini olib bordi. Antisex vakillari asosan dvoryanlardan iborat bo'lib, ba'zida ko'pgina namoyishlarda o'zlari ishtirok etmasdan, yollanma zo'ravonlardan foydalalangan. Hunarmandlar bilan hokimiyatni bo'lishishni

istamagan hukumat vakillari turli boxonalar bilan ularning ish maydonlarini kengaytirishga qarshi chiqib kelardi. Shu sababdan ham bu hududning ko'pgina mablag'i savdogarlar va olib sotarlar qo'lida to'plandi ³³.

2.3. Shaharlar boshqaruv tizimida tabaqaviy vakillik organlarining vujudga kelishi.

Shunday qilib G'arbiy Yevropa mamlakatlarida erga egalik qilishning o'ziga xos xususiyatlari uning ierarxik (pog'onama-pog'ona) karakterda bo'lib, bu hodisa maxsus shartnomalarda ifodalangan syuzerenitet – vassalitet munosabatlarini yuzaga keltirgan. Jamiyat taraqqiyotida feodal munosabatlar o'rin olgach uning siyosiy tuzilmasida ham xarakterli ifodalaydigan o'zgarishlar ro'y berdi. Feodal ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiy etishi bilan davlatchilik ham rivojlana borgan. Yevropada ayniqsa bu jarayon asosan quyidagi to'rt davr ya'ni, Ilk feodal monarxiyasi, Senorlik monarxiyasi (feodal tarqoqlik), Tabaqa-vakillik monarxiyasi va mutlaq monarxiya bosqichlarida o'tdi. Ammo bu bosqichlarni hamma Yevropa mamlakatlari ham bir vaqtda va to'liq bosib o'tmadi. Har bir mamlakat milliy tarixining o'ziga xos xususiyatlari ham ana shundan kelib chiqadi. Shuni ko'rsatib o'tish joizki, Sharq mamlakatlari o'z taraqqiyotida bunday davrlarni to'liq bosib o'tmadi. Ko'pchilik olimlar fikricha Sharq feodal davlatlari tashkil topgan vaqtdan boshlab mutloq monarxiya shaklida bo'lib, bu davr uzoq davom etdi.

Feodal jamiyatda va uning siyosiy tashkilotlarda cherkov mafkurasi katta rol o'ynab, dindorlar imtiyozli tabaqa hisoblanganlar. Xristianlik Yevropada yagona din bo'lib, u kishilarning butun hayotini o'ziga bo'ysundirgan, kishilar tug'ilganidan to vafot etgunlariga qadar cherkov nazorati ostida bo'lganlar. Xristianlik garchi kambag'al va qullarning dini sifatida vujudga kelgan bo'lsa ham, keyinchalik birinchi sobori yig'ilish chaqiradi. 1054 yilda Rim va Konstantinopol cherkovlari o'rtasidagi asriy nizolar tugab, xristianlikda uzil-kesil ikkita mazxab – pravaslaviya va katolik qaror topadi. 1232 yilda Rim papasi daxriylarga oid ishlarni barchasini dominikan – monarxlar jamoasi hal etishi to'g'risida farmoyish

³³ Городская жизнь в средневековой Европе...стр 158-160

chiqaradi.

G'arbiy Yevropa shaharlari X-XI asrlarda savdo va hunarmandchilik markazlariga aylangan. Shaharlar dastlab diniy va dunyoviy feodallar yerlarida tashkil topganligi uchun ularga qaram edi. Shaharlarning eng muhim yutug'i shu ediki ularda barcha fuqarolar erkinligining tan olinishi edi. Bu davrda Niderlandiyada feodal huquqi alohida, mustaqil holda rivojlanib bordi. Buning natijasida, G'arbiy Yevropada huquqning turlarga ajralishi belgilari namoyon bo'la boshladi. Monarx hokimiyatini amalga oshirishdagi ba'zi milliy farqlar asosan uning mazmuni va mohiyatini o'zgartirmasdi. Bu yerda davlat boshlig'i umuman har doim mamlakatdagi butun yerlarning oliy egasi sifatida maydonga chiqdi. Uning bu huquqi avloddan – avlodga meros tariqasida o'tib borardi. Ekspluatatsiyaning asosiy shakllari, birinchi navbatda polizchi – dehqonlarning hukmron sinf foydasiga renta solig'i olishi darajasi saqlanib qoldi.

Vassal o'z senoriga sodiq xizmat qilishi, uni xurmatli mexmon sifatida kutib olishi, lashkari safida xizmat qilishi, agar senori asirga tushib qolsa uni qutqazishi, sud ishlarida ishtirok etishi, katta qizi turmushga chiqqan paytida yoki senorning katta o'g'li ristarlikka o'tkazilishi vaqtida sovg'a-salomlar olib kelishi lozim bo'lgan. Vassal o'z senori, g'amxo'riga tayanishi mumkin bo'lgan. Vassalning qonunbuzarligi va kirdikorlari senor boshchiligidagi zadagonlar sudi tomonidan muxokama qilingan.

Bu jamiyatda dehqonlar pog'ananing eng pastki o'rnini egallaganlar. Jamoachilik hali saqlanib qolgan bo'lsada, feod egalari qo'lga qarab qolgandilar. Niderlandiyada barshchina uzoq yillar, davomida joriy bo'lib keldi, buning ustiga bu majburiyatning muddati tobora o'sib bordi. Ushbu majburiyat bilan birga dehqonlar pul solig'i to'lashlari ham kerak bo'lgan. Faqat erkin dehqonlarning hayoti birmuncha yaxshilandi. Nihoyatda muxtojlik va ba'zan xudoga kuchli e'tiqod ko'pchilik erkin dehqonlarni cherkov, monastirlar ixtiyoriga borishga majbur qilardi. Dehqonlardan barcha yetishtirilgan mahsulot miqdoridan soliq undirilgan va ular cherkov manfaatiga o'tkazilgan. Feod egalari dehqonlar yana boshqa jixatlardan xam qaram bo'lganlar. Turli tabaqalarga mansub aralash

nikohlardan tug'ilgan farzandlar ota-onalaridan quyi ijtimoiy tabaqaga mansublikni meros qilib olganlar, ya'ni bunday nikohlar natijasida dunyoga kelgan go'daklar quyi ijtimoiy tabaqa vakili hisoblanganlar.

O'z senorining ruxsatisiz dehqon, o'ylanish, o'z yashash joyini o'zgartirish, mol mulkning biror qismlarini o'zgaga berish huquqidan mahrum bo'lgan. Biroq dehqonlarning ahvoli qullarnikiga qaraganda birmuncha durustroq bo'lgan, xatto ba'zi erkin dehqonlar o'zlarining ma'lum ekin yerlariga ega bo'lganlar. Ularni o'ldirish mumkin bo'lmagan. Ular ba'zi fuqorolik huquqiy layoqatlarga ega bo'lib, oila qurish borasida qullarga qaraganda kengroq huquqqa ega bo'lganlar. O'z mehnatlari samarasidan ko'proq manfaatdor bo'lganlar. Zamindorlik tuzimi insoniyat tamadduni (stivilizastiyasi) ning taraqqiyot topishida yirik va dadil qadam bo'ldi. IX-XII asrlarda Niderlandiya qishloqlarida mehnat unumdorligi birmuncha o'sdi. Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, ayniqsa, uning janubida, yirik shaharlarning rivojlanishiga katta omil yaratdi. Shaharlar jonlanib ketdi. Dehqonlarning shaharlarga oqib kelishi kuchaydi. Shaharda bir yilu bir kun yashagan xar bir kishi ozod hisoblangan.

Ammo vaqt o'tishi bilan yirik zamindorlar yerida joylashgan shaharlarning ahvoli yomonlasha boshladi. Shaharliklarni o'z senorlariga har turli mulk soliqlarini to'lashga majbur qilina boshlandi: shahar darvozasida, ko'priklarda va xatto bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga o'tish uchun xam boj to'lovi joriy qilingan. Faqat uzoq davom etgan kurashlardan so'nggina ba'zi shaharlar senoriallar ma'muriyat va suddan ozod bo'lishga muvaffaq bo'lganlar. Shu alfozda shahar o'z-o'zini boshqaruvi vujudga keldi. Viloyatlar o'z sud xokimiyatiga ega edilar. Senorlar bilan o'zaro kurashlarda qirol tomonidan ko'plab yordamlar olib turganlar, qirol esa markazlashgan xokimiyat tuzishda va yirik zamindorlarning xokimiyatini cheklab qo'yilishidan manfaatdor bo'lgan.

Feodal tarqoqlik natijasida shaharlarning o'sishi, savdoning rivojlanishi susayib ketdi. Deyarli barcha grafliklar va gersogliklar olib kelinadigan mollardan boj olganlar. Bularning hammasi savdogar-tijoratchilar manfaatlarini poymol qilardi. Dunyoviy zamindor va ruxoniy zadagonlar (gerstoglar, graflar, yirik

monastir rahnamolari) qirol xokimiyatini rasmiyat uchungina tan olardilar. Ularning ixtiyorlarida alohida ma'muriyat, sud va o'zlarining tangalari amal qilardi. Buning ustiga mazkur davrda mexnat qurollari takomil topib mehnat samaradorligining oshishiga olib keladi.

Bularning hammasi o'zgarishlar, hunarmandchilikning taraqqiy topishi, shaharliklarning shakllanishiga sharoit yaratdi. Shaharliklarga tayanib gersoglar yirik zamindorlar qo'l ostida bo'lgan yerlarni zabt etish, markazlashgan hokimiyat tuzish uchun samarali kurash olib borishi mumkin edi. Bundan tashqari u kichik va o'rta xol zamindorlar yordamiga xam tayangan. Dvoryanlarning asosiy qismi zadagon zamindorlar qo'lidan aziyat chekkanlar va ular qirol hokimiyatining mustaxkamlanishidan manfaatdor bo'lganlar.

XIV asrda Shimoliy Niderlandiyada shakllangan mustaqil viloyatlar o'z boshqaruv tizimini qaytadan ko'rib chiqish zaruriyatini sezdi. Bu hududlar german imperatorlari bilan aloqalari mukammal darajada mustahkamlanmagan edi. Alohida shakllarga viloyatlar tarkibida grafliklar, shaharlar va mustaqil hududlar mavjud bo'lib, ularni boshqarishda monarxiya shakli tanlandi. Monarxiya yakka hokimlik boshqaruvi shakli bo'lib, Bunda davlat boshlig'i monarx hisoblanadi. Monarxning to'la hokimiyatini cheklaydigan biron-bir davlat organi bo'lmaydi.

Gollandiya, Zellandiya va Geldernda tabaqaviy vakillik organlariga tayangan monarx davlat boshqaruvini o'z qo'liga oldi. Ma'lum bir muammo va masalalarni yechishda tabaqaviy vakillar va viloyat hukmdorlari kengashga chaqirildi. Bir necha yil davomida shu nom bilan yuritildi. Mustaqillik qo'lga kiritlgan kundan boshlab unga dvoryanlar va shaharlarning ziyolilari chaqirilib Viloyatlar kengashi degan nom berildi. Bu yig'ilishlarda ayrim hollarda din vakillarining ishtirokini ham ko'rish mumkin bo'lgan. Shaharliklar tabaqasi niderland viloyatlari yig'ilishida va Gollandiyaning shaharlarida eng obro'li kishilarga aylanib bordi. Bu siyosiy o'sish Niderlandiya shaharlarida bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Ammo bu uzoq davom etmadi yuz yillik urush davrida Yevropada iqtisodiy

inqiroz yuz berdi. Buning asosiy sababi vabo kasalligi edi. 1347-1350 yillarda butun Yevropa bo'ylab tarqalgan vabo Shimoliy Niderlandiya yerlaridan tashqari (Flandriyaga) katta ta'sir o'tqazdi. Iqtisodiy tanglik o'zi bilan birga demografik muammolarni ham olib keldi. Xo'jalik hayot butkul izdan chiqdi. XIV asr o'rtalariga kelib Niderlandiya viloyatlaridagi zodogonlar va sex vakillari o'rtasida kelishmovchiliklar yuz berdi. Gollandiya va Brabant sulolalari o'rtasidagi kurash hududlar xo'jalik hayotini va iqtisodiyotini tushkun vaziyatga olib keldi.

Brabantda yuzaga kelgan muammo ikki yillik urush bilan tugadi. Flandriya bilan bo'lgan kurash natijasida hokimiyat Brabantlik Ioann (1355-1406) qo'lida to'plandi. 1345 – yilda Gollandiya va Gennegau grafi Vilgelm IV vafot etdi. Uning befarzand ekanligi sabab taxtga singlisi Margarita o'tirdi. Ammo Gollandiya va Zellandiya hukumati vakillari ayol kishiga bo'ysunish haqorat bilan barobar deya o'z norozligini bildirishdi. Bu vaqtda taxtga yangi davogar Vilgelm V (Margaritaning German imperatori Lyudovik IV dan bo'lgan farzandi) onasidan taxtni unga topshirishni talab etdi. Onasi Margarita taxtdan o'g'lining muntazam soliq to'lab turish sharti bilan og'li foydasiga taxtdan voz kechdi. Natijada Gollandiya, Zellandiya va Gennegau mulklari boshqaruvi Bavariya sulolasi qo'lga o'tdi. Bavariya sulolasi vakili Vilgelm V ning onasi bilan munosabatlari yomonlashib sulolaviy kurashlarni keltirib chiqardi. 1350-yilda Margarita o'g'li Vilgelm V ni soliqlar to'lamaganligini bohona qilib, undan boshqaruvni tortib oldi. Natijada dvoryanlar ikkiga bo'linib ketdi. Ularning bir qismi Vilgelm V hukmronligini tan olsa, ikkinchisi esa Gollandiya va Zellandiya mulklari Margarita tomonidan boshqarilishini yoqlab chiqdi ³⁴.

Treska va ilgaklar kurashi.

Golland dvoryanlarining ikkiga bo'lingan qatlami tarixga “treska (Shimoliy Dengizdagi baliq turi) ” va “ilgak (baliq tutadigan ilgak)” lar nomi bilan kirdi. Bu oqim vakillarining nomi haqida ko'pgina ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Vilgelm V tarafdorlarining aksariyat qismi kulrang-havorang ko'rinishda bo'lganligi sababli ularni treska balig'iga o'xshatishgan. Ularning raqiblari kuchliroq bo'lgani sababli

³⁴ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 63-65

ilgak tashlab adashib qolgan baliqlarni ovlashni mo'ljal qilgandi. "Ilgak" larning rahnamosi sifatida Margarita gavdalandi. Margarita boshchiligidagi "ilgak" lar siyosiy hokimiyatni bo'laklarga bo'lib boshqarishni istasa, "treska" lar esa markazlashtirish va birlashtirish yo'lidan bordi.

Gollandiya markazi va chegara hududlari bu ikki oqim kurashiga tortildi. "Ilgak" larning aksariyat qismini separatik ruhda bo'lgan dvoryanlar, "treska" larni Gollandiya va Zellandiya yirik, o'rta va kichik dvorynlari qo'llab – quvvatladi. O'z raqiblari bilan bo'lgan kurashda graf Vilgelm V bir qancha mag'lubiyatlardan so'ng, g'alaba nashidasini surdi. Lekin uning g'alabasi, "treska" va "ilgak" lar o'rtasidagi kurashni to'xtata olmadi. Gollandiyada 1346 – yilda boshlangan sulolaviy kurashlar XV asrning oxiriga qadar davom etdi. Bu kurashlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga putur yetkazdi. Bu kabi oqimlarning kurashi Yevropa tarixi uchun yangilik emasdi. Bu kurashlar XIV-XV asrlarda Butun G'arbiy Yevropa hududini qamrab oldi.

Shimoliy Niderlandiya hududlarida avj olgan sulolalar o'rtasidagi kurash asta sekinlik bilan chegara hududlarga ko'chdi. Geldernda Bronkxorst va Van Gekkern sulolalari kurashi, Utrextda Lixtenberg va Lokxorsten, Frislandiyada sxiringer va fetkoperlarning markaziy hokimiyatning egallash maqsadida olib borgan kurashlari mamlakatni xarob qildi. Ichki nizolarning avj olishi natijasida niderland yerlarida tarqoqlik, bir-biridan ajralish holati ko'payib bordi. Buni tushunishni istamagan sulola vakillari: Flandriya, Gollandiya va Braban yerlarining hukmdori bo'lishga intildi. Bu kurashlarni kuzata turib, kuch yig'ishga muvaffaq bo'lgan Burgundiya gersogligi siyosiy maydonga kirib keldi ³⁵.

XV asr oxirlariga kelib Niderlandiya viloyatlari G'arbiy Yevropaning kurtak yozayotgan hududlaridan biriga aylandi. Buning asosiy sabablaridan biri uning geogragik joylashuvi hamda unda quruqlik va dengiz savdosining rivojlanganligi edi ³⁶. Mamlakatning Burgund sulolasi gersoglari tomonidan boshqarilishi ayrim

³⁵ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 63-65

³⁶ Максаковский В. П. Историческая география мира. М., 1997. стр 251

iqtisodiy masalalarda Niderlandiya shaharlariga imtiyozlar olib keldi. Niderlandiya yerlari unumdor bo'lishiga qaramay uning barcha hududlari qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmadi. Aynan shu sabab, Artua, Gennegau, Lyuksenburg, Geldern, Overeyssel va Utrext shaharlarida agrar-feodal munosabatlarga birmuncha putur yetkazdi. Frislandiya, Groningen va Drente shaharlarida yerga egalik qilish munosabatlari o'zgarmasdan qoldi. Flandriya, Brabant va Zellandiya shaharlarida savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanganligi sababli feodal munosabatlarni o'zgartirib yubordi. Niderlandiya shaharlarida tovar-pul munosabatlarining shaklanishi, dehqonlarning yerga bog'lanib qolishidan xalos etdi.

Janubiy viloyatlarda esa dehqonlar o'z senyorining yerida ishlaganligi uchun soliq to'lardi xolos. Bu soliq chinsh deb atalardi. Gollandiyaning janubiy shaharlariga chinsh solig'i joriy etildi. Gollandiyaning shimoliy shaharlarida esa erkin dehqonlar soni kun sayin oshib bordi. XV asr oxiriga kelib Niderlandiya qishloq xo'jaligida yerni ijaraga olish va undan foydalanish tabiiy holatga aylanib qoldi. Mehnat qurollarining takomillashishi va yangilarining ixtiro qilinishi, agrar munosabatlarning tartibga solinishi agrar madaniyatning yuksalishiga olib keldi. Yerga egalik qilish munosabatlarning o'zgarishi yildan-yilga hosilning yaxshilanib borishi va yetishtirilgan mahsulotlar sonini ko'payishiga olib keldi.

Yaroqsiz yerlarning o'zlashtirilishi chorva mollari sonining ko'payishiga olib keldi. Har bir viloyat ma'lum bir soha bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Frislandiya chorvachilikni rivojlantirib sir, yog' va chorva mollari savdosi bilan shug'ullandi. Janubiy Gollandiya chorvachilik hamda zaytun daraxtlarini ko'paytirib, undan yog' olishni yo'lga qo'ydi. Shimoliy Gollandiya chorva mollaridan olingan sir va yog'ni qo'shni hududlarga eksport qilardi. Zellandiya, Gennegau va Overeyssel don viloyatlari nomini oldi. Bu viloyatlar Niderlandiya va G'arbiy Yevropa davlatlariga don mahsulotlarini yetqazib bergan. Zellandiya, Gollandiya, Brabant, Flandriya va Gennegau hududlarida marena (ro'yan) ildizlaridan qizil bo'yoq, drok (sariq gulli dukkakli o'simlik) ildizlaridan

bir necha xil rangdagi bo'yoqlar olingan ³⁷.

Niderlandiyaning asosiy eksport mahsulotlari: sir, yog', chorva, qalin gazlama, zig'ir yog', kanopdan to'qilgan matolar, kanop arqon bo'lgan. Shaharlarda savdo-sotiqning oshishi va qurilishlarnin ko'payishi mayda hunarmandlar mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirdi. Ular tomonidan: terini qayta ishlash, arzon teridan kiyim tikish, torfdan yoqilg'i olish, sho'r suvdan tuz olish, cherepitsa va g'isht tayyorlash yo'lga qo'yildi. Asta sekinlik bilan Niderlandiyaning g'arbiy viloyatlarida mayda hunarmandlar qishloqlari paydo bo'la boshladi. Bu qishloqlarda hunarmandlar oilaviy mehnat qilib, buyurtma asosida shahar bozorlariga mahsulot tayyorlab berardi.

Dengiz savdosida Flandriya, Gollandiya va Zellandiya savdo kemalari asosiy rol o'ynardi. 1400-1475 yillar davomida Niderlandiya viloyatlarning savdo aylanmasi ikki baravarga o'sdi. Mariya Burgundskaya mamlakatda rivojlanib borayotgan va g'aznani to'ldirayotgan barcha sohalarga imtiyozlar berdi. Bunday imztiyozlarni qo'lga kiritgan Flandriya, Brabant, Zellandiya va Gollandiya sacvdogarlari o'z mahsulotlarini chetga chiqarish huquqiga ega bo'ldilar. Lekin dengiz hududlaridan ancha uzoqda bo'lmagan shaharlar ham bor edi. Masalan, Bryugge shahrining savdosi faqatgina daryo orqali bo'lib, olinadigan daromad unchalik katta bo'lmagan. Niderlandiya hududida yuklarni tashish bo'yicha: Antverpen (Brabant), Middelburg (Zellandiya), Rotterdam va Amsterdam (Gollandiya) shaharlari kemalari shug'ullanardi.

Middelburg ingliz mo'ynasini sotish bo'yicha markazga aylandi. 1421 - yil Maas daryosi hududlarida joylashgan Dordrext shahri suv toshishi natijasida suv ostida qoldi. Bir qancha vaqt uning savdo kemalarining ishi to'xtab qoldi. Bu vaziyatdan foydalangan Rotterdam savdo kemalari ularni siqib chiqardi. Amsterdam xalqaro savdoda muhim ahamiyat kasb etib, boltiqbo'yida savdo qilayotgan Ganza ittifoqi a'zolarini imtiyozlaridan mahrum etdi. XIV asrda gollandlar Shimoliy Dengizdan tutilgan seld baliqlarini bochkalarda saqlashni va sotishni yo'lga qo'ydi. Golland va zelland bandargohlari baliq savdosining

³⁷ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 85-88

markaziga aylandi. Dengizdan olinayotgan daromad tufayli kemalarga xizmat ko'rsatish ustaxonalari vujudga keldi. Bu ustaxonalar nafaqat golland balki Venetsiya va Genualik savdo kemalariga ham xizmat ko'rsatgan. Bu ustaxonalarning eng yiriklari: Amsterdam, Eynkyoyxzen, Edam, Monnikendam, Xorn, Rotterdam va Xarlem hududida joylashgan edi.

Brabant va Gollandiyada gazlamalardan turli xildagi mahsulotlar tikish ustaxonalari ham tashkil etildi. XV asr davomida Leyden shahrida movutchilikka ixtisoslashdi. Gent, Bryugge va Iprda ishlab chiqarilgan movut mahsulotlari Leydennikiga nisbatan ancha sifatsiz edi. Xarlem va Delfte shaharlari pivo ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, uni Gollandiya hududiga pulladi. 1500 – yilga kelib Niderlandiya aholisi 900 mingni tashkil etdi. Flandriyada aholining 25 % i, Gollandiyada aholining 10 % i joylashgan edi. XV asr o'rtalaridan boshlab Flandriyada amalga oshirilgan soliq islohoti o'z natijasini berib, mamlakat g'aznasining daromadi har yilgiga nisbatan 3 barobarga oshdi. Gollandiya va Zellandiyada esa asosiy mablag' grafliklarning qo'lida qolib ketaverdi. Lekin bu shaharlarda olingan daromadning aksariyat qismi shaharlar iqtisodiyotini rivojlantirishga sarflandi. Qishloqlarda yashovchi aholi ko'chib kelib shaharliklar safini to'ldirdi. XV asr oxirlariga kelib, Gollandiya aholisining 54 % i shaharlarda istiqomat qilardi. 1 km² hududga 37 kishi to'g'ri kelardi ³⁸.

2.4. XI-XV asrlarda Niderlandiya madaniyati taraqqiyoti.

Niderland san'ati. Niderlandiya hududida o'rta asrlarda mavjud bo'lgan yagona badiiy maktabdir. XIV asrdan to Niderlandiya inqilobi g'alabasi (XVI asr) ga qadar bo'lgan davrda bu yerlarda G'arbiy Yevropa O'rta asrlar va Uyg'onish davri san'ati shakllangan. Niderlandiya hududida Karolinglar davrida bazilika tipidagi cherkovlar, ba'zan markaziy kapellalar qurilgan, XI - XIII asrlarda roman uslubi rivojlangan. Dastlabki turar joy binolari paydo bo'lgan; qasr va bozor maydonlari atrofida aylana tarxli ratusha, gildiya uylari va ustaxonalari bo'lgan

³⁸ Керов В. Л. Из истории Франции и Нидерландов в эпоху Средневековья и раннего Нового времени (экономика, политика, религия)...стр 212-223

shaharlar qad ko'tardi, shaharning minorali devorlari, ko'priklari mustahkam qilib qurildi. Maas vodiysi me'morligida roman va gotika uslublari uyg'unlashgan. Shimoliy Niderlandiyada g'ishtli gotika keng tarqalgan, binolardagi hashamatli bezaklar binoning mahobatli shakliga bo'ysundirilgan. Niderlandiya san'atida haykaltaroshlik va rangtasvirda yutuqlarga erishildi ³⁹.

XI asrdan miniatyura (Stavlo «Injil»i, 1093—97), badiiy bronza buyumlar tayyorlash, zargarlik san'ati, XIII-XV asrlarda gotika haykaltaroshligi («Momo Havo», Lejdagi Sen-Jan cherkovida), monumental («Xochga mixlash», Utrextdagi SintPeterskerk cherkovida) va dastgoxli (rassomlar J.Maluel, A. Belshoz, M.Bruderlam) rangtasvir rivojlangan; haykaltarosh Kavel de Verve, miniatyurachi rassomlardan aka-uka Limburglar mashhur bo'lgan. XV asrdan Niderlandiya san'ati Shimoliy Yevropa san'atida yetakchi o'rin tutdi, inson va tabiatga yangicha munosabatlar shakllandi, inson va tabiat orasidagi uyg'unlikni aks ettirish shu davrlarda yaratilgan asarlarga betakror ruh baxsh etdi. Jumladan, Yasr van Eyk asarlarida kundalik hayot rang-barangligi va ko'tarinki ruxi o'z ifodasini topdi, rang va nur alohida plastik kuch va ifodalilik kashf etib, Yevropa rang-tasvirining keyingi rivojida muhim rol o'ynadi, rassomning o'zi Shimoliy Yevropa Uygonish davri san'ati asoschisiga aylandi ⁴⁰.

Van Eyk (taxminan 1390-1441 dafn etilgan, Bryugge) - niderland rassomi, Niderlandiya ilk Uyg'onish davri san'ati asoschisi. Altar uchun ishlangan mahobatli diniy mavzudagi asarlar Van Eyk ijodining cho'qqisidir. O'zidan oldingi rassomlarning yutuqlarini rivojlantirdi va boyitdi, an'anaviy sahnalarni mavjud olamning ulug'vor va go'zal tasviriga aylantirdi: «Gent altari» poliptixi (Gentdagi Avliyo Bavon soborida), «Kansler Rolen Bibi Maryami» (taxminan 1436, Luvrda, Parij). Yevropa rang-tasvirida yirik portretchilardan bo'lgan Van Eyk ijodida portret alohida janrga aylandi, ko'krakkacha, yarim burilgan holatdagi portret turi asoschilaridan («Timofey», 1432; «Qizil bosh kiyimdagi kishi», 1433; «Er-xotin

³⁹ Серебрянный Л. Р. Нидерланды: Традиции и современность. М., 1990. стр 13-15

⁴⁰ Опыт тысячелетий. Средние века и эпоха Возрождения: Быт, нравы, идеалы. М., 1996.стр 46

Arnolfinlar portreti», 1434; «Rassomning rafiqasi Margarita van Eyk», 1439).

Van Eyk ijodi o'zidan keyingi san'atkorlar (masalan Italiyada Girlandayo Tommazo Bigardi) ga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Asli Italiyalik bu rassom ijodining ilk davrlarida Florensiya va Niderlandiya rassomlaridan ta'sirlangan (San-Jiminyanodagi cherkov devoriy rasmlari, taxminan 1475) Qadimgi san'atni o'rganish Girlandayo uslubini to'la shakllanishiga olib keldi. Santa-Trinita (1483 - 86), Santa-Mariya Novella (1485-90) cherkovlardagi turkum asarlari aniq kompozition qurilishi, tantanali mazmundagi voqealarning Florensiya binolari va maydonlari zaminida tasvirlanishi, maishiy lavhalar va zamondoshlari portretlarini asarlariga dadil kiritishi (diniy mazmun bilan real hayotning uyg'unlashtirilishi) bilan diqqatga sazovor.

XV-XVI asrlar Niderlandiya Uyg'onish davrida altar kartinalari, portretlar, miniatyuralarda rassomlar (R.Kampen, Yasr van Eyk, Rogir van der Veyden, X.van der Gus, X.Bosx) dunyoviy hayotni haqqoniy aks ettirdilar. Niderland amaliy bezak san'ati tuzilishi ko'p shaklli bo'lib, zargarlik san'ati, sopol buyumlar tayyorlash, kashtachilik yuksak darajada bo'lgan. Niderlandiya burjua inqilobi g'alabasidan so'ng Niderlandiya san'ati ikki mustaqil —Gollandiya va Flamand maktablariga ajraldi va o'ziga xos tarzda rivojlandi va talqin qilindi.

Til va adabiyot. Niderland (golland) tili hind yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhiga mansub. Niderland tili o'rta asrlarda sali franklari qabilaviy lahjalarining friz va sakson qabilaviy lahjalari bilan o'zaro ta'sirlashuvi jarayonida shakllangan. O'z tarixida 3 rivojlanish bosqichini o'tgan: qadimgi niderland (IX—XI asrlar), o'rta niderland (XII-XV asrlar) va yangi niderland (XVI asrdan boshlab; bu davr hozirgacha niderland tiliga o'tish bosqichidir). Niderland tili dialektal jihatdan shimoli-markaziy, shimoli-g'arbiy, janubi-markaziy, janubi-g'arbiy, shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy lahja guruhlariga ega. Til xususiyatlariga va grammatik qurilishiga ko'ra, niderland tili analitik tipdagi tillardandir. Ko'p jihatdan nemis tiliga juda yaqin, lekin sifatlarning turlanmasligi, gapdagi so'z tarkibining o'ziga xosligi jixatdan farqlanadi. Niderland tili yozuvi lotin

grafikasiga asoslangan ⁴¹.

Golland tilidagi eng qadimgi adabiy yodgorlik IX asrda dunyoga kelgan. Adabiy tilning shakllanishi XII asrga to'g'ri keladi. Limburg lahjasi ko'rinishidagi til ommalashadi. Bu til reyn va nemis tillar oilasiga juda yaqin hisoblanardi. Niderland va nemis adabiyotida Gendrik van Feldeks (1140—1200) saroy eposini yaratib shuhrat qozondi. «Reynard haqida qo'shiq» deb atalgan xalq dostoni xalqchil she'riyat va dramaturgiyaning rivojlanishiga zo'r ta'sir o'tkazdi. Adabiy tilining shakllanish jarayoni shoir Gendrik van Feldeks ijodida ko'rishimiz mumkin. Bu shoir ikki til: niderland va nemis tillarida ijod qilgan. Feldeke Niderlandiya shimolidan yetishib chiqqan eng birinchi shoirlardan bo'lib, u bilan vatandoshlari faxrlanardi. Feldeke Limburg shahrida dunyoga keldi. U tabaqaviy jihatdan ritsarlar oilasidan edi. Uning yozgan asarlarida o'sha davrning oddiy odamlari hayotini aks ettirardi. Uning “Eneida” asarida G'arbiy Yevropa ritsarlari tarannum etilgan. XII-XIII asrlarda niderland adabiyotida ritsarlik romanlariga katta e'tibor qaratildi. Chunki bu ritsarlik romanlarida qiziqarli afsonaviy voqealar o'quvchini qiziqtirib qo'yardi. Bu romanlarning bir qanchasi fransuz romanlari ta'siri ostida yozilganligi nomoyon bo'ladi.

Yozilgan romanlar ichida asosan antic davr xudolari va imperatorlarining qilgan ishlari tariflanardi. Qirol Artur, Karolinglar va Vizantiyalik ritsarlar haqidagi hikoyalari tezda butun G'arbiy Yevropaga mashhur bo'lib ketdi. O'rta asrlarda romanlarning asosiy mavzusi Buyuk Karl va u tuzgan davlat haqida bo'ldi. Ulardan biri Niderlandiya hududidan topilgan “Karl va Elegast” asari bo'lib bu asarda Karl bilan birga yurgan Elegast ismli xizmatkori uni bir necha ofatlardan asrab qolganligi haqida fikr yuritiladi. Bu asar muallifi kimligi hanuzgacha nomalum. Lekin tarixchilarning ta'kidlashicha u Flandriya yoki Brabant fuqarosi bo'lgan.

XII-XIII asrlarga tegishli nodir asarlardan yana biri “Tulki Reynar haqida” asari bo'lib, boshqa yevropa hududlarida bo'lganidek unda xalqqa zulm o'tqazgan

⁴¹ Миронов С. А. История нидерландского литературного языка (IX-XVI вв.). М., 1986. стр 19-23

yirik feodallar, ritsarlar va cherkov ruhoniylarini turli xildagi hayvonlar ko'inishida gavalantirgan. Hayvon ko'inishida aks etgan bu qahramonlarning qilmishlari ochib tashlanib ularni mazax qilishgan. Yevropaning barcha hududlariga xos yozuv bu lotin yozuvidir. XIII asrga qadar lotin yozuvi Niderlandiyaning barcha hududlarida amalda bo'lgan yozuv edi. Keyinchalik Niderlandiyada flamand va Brabant yozuvlari keng tarqaldi.

Adabiyotning didaktika janriga qiziqish ortib XIII asrning birinchi yarmida Janubiy Niderlandiya shoirlari: Yakov van Marlant va uning shogirdi Yan va Bundale (1282-1365) aynan didaktika janrida ijod qildi. Marlant ijodida ko'pgina hikoya va romanlarni ko'rishimiz mumkin. Undagi voqealar va tarixiy jarayonlarning ta'rifi aynan o'sha davr odamlari og'zidan yozib olingan. Uning "Tarixiy ko'zgu" (1288) asari ham shular jumlasidandir. Shogirdi Bundale "Dunyoviy kishilar ko'zgusi" (1325-1333) nomli asari uning davomi hisoblanadi. Niderlandiya tarixining Brabant kuchayishigacha bo'lgan davr bu ikki asarda o'z aksini topgan.

Niderlandiyada shahar adabiyoti bilan bir vaqtda diniy adabiyot ham shakllandi. Ularni orasidagi farq va voqealar bir-birini inkor etard. Diniy adabiyotning asosiy mavzulari majusiylar va avliyolarning hayotiga bag'ishlangan edi. Diniy adabiyotning yorqin asarlaridan biri Xadevik (1210-1269) tomonidan yozilgan "Cherkova va din" asari hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Lekin bu asarni tahlil qilgan tarixchilar uning ziyolillar oilasida yashaganligini bildirib o'tishdi. Xadevikning bu asari yangi shakllangan niderland yozuvida yozilgan ilk diniy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda berilgan qahramonlardan biri uning o'zi bo'lishi mumknligi haqidagi ehtimol ham yo'q emas.

XIV asr oxiridan Brabant janubida "abele spelen" (jozibador sahna asarlari) nomli janr paydo bo'ldi. Bu janr oqsuyaklarga xos edi. G'arbiy Yevropada bundan oldin bu janrda "Esmoreyt" va "Daniyalik Lancelot" nomli asarlar yaratilgan edi. Diniy adabiyotga uning o'zgargan shakli mirakli, misteriy, keyinroq esa moralite nomlari bilan uchradi. Bu asarlarning asosiy mulislari magistrate va sex vakillari

edi. Sahnalashtirilgan asar dastlab ularga, ular zerikishgandan so'ng butun omma oldida namoyish etilardi. Niderlandiyada dunyoviy va diniy adabiyotni bir-biriga omuxtalashtirib ularning ikkisida ham omadli ijod qilgan yozuvchi va ilohiyotchi Yan van Ryusbruka (1293-1381) ni asarlarini aytishimiz mumkin. Uning “”Hayratlanarli hodisa” asarida xudoning mohiyati va irodasi xaqidagi diniy talimotlar majmui hisoblanadi.

Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan farazga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar asarning asosiy manbalari hisoblanadi. Bu asar turli diniy o'quv yurtlari - seminariyalar, akademiyalar, va boshqa muassasalarda o'qitila boshlandidi. “Diniy nikoh libosini kiyish” asari cherkov tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar mutlaqo diniy kitob sahifalarida yozilgan g'oyalarga zid ekanligi aytiladi. Uning bu asari niderlandlarni reformatsiya (cherkovni isloh qilish) ga chorlagan asarlardan biri bo'ldi. Ryusbruk Grunendalda monastir tashkil etdi. Bu yerda u ilohot va tasavvuf fanlaridan o'quvchilarga dars berdi ⁴².

Musiqasi. Niderlandiyaning musiqa madaniyatiga doir dastlabki ma'lumotlar ilk o'rta asrlarga mansub. XII asrdan ristarlik lirikasi rivoj topdi. XIV asrda menestrellar deb atalgan sayoq sozanda va xonandalar xalq qo'shiqchiligini professional san'at darajasiga ko'tardilar. Bayram, yarmarka, turli musobaqalarda musiqa asboblari jo'rligida ashula va raqslar ijro etish odat tusiga kirdi. XV-XVI asrlarda musiqa san'ati, ayniqsa, yuksaldi. Xususan, Uyg'onish davrida vujudga kelgan Niderland maktabi Yevropaning kompozitorlik ijodiyotiga ta'sir o'tkaza boshladi.

XII-XV asrlar musiqasidagi ijodiy yo'nalish, Uyg'onish davrining yetakchi kompozitorlik maktabi bo'ldi. Niderlandiya (tarixiy viloyat) ilg'or musiqa madaniyati yuksak professionalizm, badiiy yutuqlar va xalq an'analari zaminida shakllanib, G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Niderlandiya musiqa maktabi vokalxor polifoniya taraqqiyotini belgilab berdi va uning umumiy asos va

⁴² Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 89-91

usul (imitastiya, murakkab kontrapunkt) larini ishlab bergan. Yetuk namoyandalari: G.Dyufai (1400-1474), Y.Okegem (1408-1456), Yasr Obrext (1423-1481), Josken Depre (1450-1524), Orlando Lasso (1532-1594), Tinktoris (1435-1511). Niderlandiya musiqa maktabi ijodkorlari diniy va dunyoviy musiqa (messa, motet, madrigal, polifonik qo'shiqlar), XV asrda murakkab cholg'u pyesalar ham yaratdilar.

Kapella xor messalari Niderlandiya musiqa maktabining ulkan yutug'i bo'ldi. Niderlandiya musiqa maktabi ishlab chiqqan ko'p ovozlilik qonunlari va yangi ifoda vositalari kompozitorlik musiqaning keyingi taraqqiyotini ta'minladi; uslub sifatida Yevropa musiqa san'atida cherkov vokalxor janrlari va ularda ifoda topgan diniy dunyoqarashining ko'p asrlik hukmronligini yakunladi. Niderlandiya musiqa maktabi ko'p badiiy xususiyatlari musiqaning keyingi rivoji (polifoniya, gomofoniya, dodekafoniya) da o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Kitob minyaturasi. XII-XIII asrlarda Janubiy Niderlandiyada kitob minyaturasi san'ati rivojlanib bordi. Bu san'atga qiziqqan va u bilan shug'ullanishni niyat qilgan insonlarni Bryugge ustaxonalari o'ziga jalb etdi. G'arbiy Yevropaning barcha shaharlarida kitob minyaturasi sanatini qadrlashardi. Chunki u insondan mashaqqatli mehnatni talab etadi. Buyurtma beradigan zodoganlar asar qahramonlari orasida uning o'zi yoki qarindoshlaridan birning obrazini yaratishni ham so'rardi. Bu ustaxonalarda rassomlar, bo'yoqchilar, minyaturachilar faoliyat olib borardi. Ular asosan diniy va har kunlik hayot tarzidagi qiziq voqealarni kitobga muhrlardi. XIV asrning birinchi yarmida Shimoliy Niderlandiya viloyati Gollandiyada maxsus minyatura maktablari tashkil etildi.

Bu maktab Utrext yepiskopligi qoshida tashkil etildi. Flandriya minyatura maktablari kitoblarni "milliy gotika" uslubida bezashni ishlab chiqdi. "Milliy gotika" uslubida asar qahramonlarining kechinmalari va u o'quvchiga nima demoqchiligini aks ettirishga harakat qilinardi. Bu uslubda kitobni bezatish va minyaturalarni chizish Albrect Bavarski (1336-1404) davrida ancha ommalashdi.

Gaagada joylashgan qirol sanat maktabi o'z asarlarini Gollandiya, Zelandiya va Genneqau hududi graflariga va savdogarlariga pullardi. Aynan golland maktablarida yaratilgan nodir asarlar hozirga qadar yetib kelgan va ular Utrextdagi Avliyo Yekaterina muzeyida saqlanmoqda. Ularning ko'pchiligi XIV asrning birinchi yarmiga tegishli. Amaliy san'atda kitob miniatyurasi rivojlandi. Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida miniatyura maktablari (rassomlar) shakllandi, yaratilgan asarlar mustaqil asar sifatida ahamiyatga egadir. Jumladan, niderland rassomlari aka-uka Limburglar 60 dan ortiq miniatyuralarda yil fasllari, qishloq xo'jaligi bilan band kishilarning hayotini jonli ifodalagan ⁴³.

Kitob bosish. Kitob bosishning o'tmishdoshi ksilografik bosma bo'lib, unda bosiladigan butun bir bet yozuv taxtaga o'yib qo'yilardi. Yevropada harf terish shrifti ixtiro qilindi. O'sha davrda bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlar — Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Fransiyada birbiridan mustasno bir necha ustalar bitta muammo — bosma mashina yaratish ustida ish olib borishgan. Hozirgi vaqtda tarixchilar bu muammoni birinchi marta germaniyalik Iogann Gutenberg (1399— 1468) hal qilganligini aytishadi. Metall shriftlarni matritsalarga qo'yish qurilmasi ixtiro qilingandan so'ng Yevropaning ko'pgina shaharlarida kitob bosib chiqarila boshlandi. 1464 yilda Rimda birinchi Kitob bosish uskunasi o'rnatildi. 1470 yillarga kelib Fransiya, Niderlandiya, Shveysariya, Ispaniya va Angliyada kitoblar bosib chiqarila boshlandi. Venetsiya, Nyurnberg kitob bosish ishlari bo'yicha yirik markazga aylandi. 1500 yillarga kelib Yevropaning 250 shahrida bosmaxona bo'lgan. Bosmaxona ishlarining rivojlanishi tufayli kitob umumiy siyosiy hayotda va madaniyatning rivojlanishida muxim rol o'ynadi.

Shimoliy Niderlandiya, kitob bosish usuli paydo bo'lgan ilk hududlar hisoblanadi. 1470 – yilda Utrext, Deventere va Gaudeda ilk tipografiya (bosmaxona) lar paydo bo'ldi. 1480 – yilda esa ular Xarlem, Leyden, Delfte, Zvolle va Neyvegen hududlarida birin ketin ochildi. Unda dastlab diniy mazmundagi kitoblar va varaqalar bosib chiqarildi. Deventeredagi bosmaxonalarda antic davr mualliflarining asarlari ko'plab chop etildi. 1500 – yilga kelib 450 dan

⁴³ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 91-93

ortiq nodir asarlar nashrdan chiqarildi. Kitoblarning ko'pchiligi lotin yozuvida bo'lib, ona tilida yozilgan kitoblar ozchilikni tashkil etardi.

Arxitektura. XI asrdan boshlab Niderlandiya memorchiligiga roman uslubi kirib keldi. Yevropa (asosan, G'arbiy Yevropa) san'atida X asrdan XII-XIII asrlargacha hukm surgan roman badiiy uslubidir. Bu davr san'atida Qadimgi Rim madaniyati va me'morchiligida uslub va unsurlaridan keng foydalanilgan («roman» iborasi shartli bo'lib, «rimniki» ma'nosini anglatadi). Bu uslub Yevropada xristian diniy tizimining mustahkamlanishi va yoyilishi bilan bog'liq holda rivojlandi, shuning uchun markazlari monastirlar bo'lib, quruvchi, haykaltarosh va toshtaroshlari esa monaxlar edi.

XI asr oxiridan sayyor quruvchilar sobor, monastir, cherkov, qo'rg'on va qasrlar qurib Niderlandiyaning roman uslubini yaratdilar. Binolar toshdan qurilgan (bazilika turi asosiy o'rinni egallaydi), tuzilishining asosini minora tashkil etadi, uning atrofidagi geometrik shakllar (kub, prizma, stilindr) binoning yaxlit majmuini hosil qiladi. Niderlandiya me'morchiligida antik davr arxitekturasi sezilarli ta'sir ko'rsatgan, yuzaga kelgan me'morchilik maktablari yagona tamoyillarga bo'ysungan. Bu binolar tarixi va tuzilishida, bezaklar shakli va mazmunida ko'rinadi. Fransiya va Germaniya me'morchiligidagi yangiliklar Niderlandiya cherkovlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Notrdam la Grant ibodatxonasi (XI-XII asrlar) ko'rinishi birmuncha past, uch nefli (o'rtadagi nefi yonidagilardan birmuncha baland), tosh devorlar qalin, undagi kichik tor darchalar devor qalinligini bo'rttirib, salobatini oshiradi, bino (ichki va tashqi devorlari) rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan.

Dastlab devoriy rasmlarga keng o'rin berilgan, XI asr oxiri — XII asr boshlaridan ibodatxonalar bezagida monumental releflar yetakchi o'rin egallaydi; bino peshtoqi va old tarzida, ichki bezaklardan ustun va uning kapitelida keng ishlatilgan. Niderlandiya roman uslubida vitraj ham o'z o'rniga ega bo'lgan. XIII asr o'rtalaridan Niderlandiya hududidagi barcha shahar binolari aynan roman uslubida qurila boshladi. Roldyuk, Limburg (1107-1152) va Mastroixtdagi cherkovlar fikrimizning dalili hisoblanadi.

XIII asr o'rtalaridan shaharlarning iqtisodiy o'sishi va cherkovlarning obo'si oshishi tufayli butun shahar bo'ylab borayotgan qurilishlarga yangi uslub kiritish g'oyalari tug'ila boshlaydi. Cherkov va ibodatxonalarni bunyod etishda gotika uslubidan foydalana boshlashadi. G'arbiy, Markaziy va qisman Sharqiy Yevropa mamlakatlarida o'rta asrlar san'atida hukm surgan badiiy uslub gotika edi. Gotika termini Uyg'onish davrida qo'llanila boshlagan. XII asrda roman uslubi o'rniga yuzaga kelgan. Gotika XII asr o'rtalarida Janubiy Niderlandiyada rivoj topdi. XII asr birinchi yarmida o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Shu yerda gotikaning tosh ibodatxonalari o'zining mumtoz shakliga ega bo'ldi.

Niderland Gotikasida yetakchi o'rinni me'morchilik egalladi, unda me'morlik, haykaltaroshlik va rangtasvir (asosan vitraj) ning uyg'unligi buyuk namunasi bo'lgan ibodatxona alohida o'rin tutadi. Ibodatxona qurishning yangi loyiha tizimi ishlab chiqildi: bosh tarzi uchli ravokli va gumbazlari qovurg'ali (nervyur), ogirligi arkbutanlar orqali tashqi devor va tayanch ustunlar (kontrfors)ga o'tkazilgan sinchli tuzilmasr Gumbaz to'shamalari yengil qalamalar bilan to'ldirilgan, ustun oralaridagi yirik oynalar vitrajlar bilan bezatilgan, g'arbiy tarzida minoralar (balandligi 150 m gacha) qurilgan. Bu yangi loyiha neflar kengligi va bino balandligini birmuncha oshirgan. Shuning hisobiga inshoot yengil, tuzilishiga ko'ra ko'kka bo'y cho'zgan. Ichi va tashqarisi haykallar va nafis tosh o'ymakori bezaklar bilan bezatilgan. Tuzilishida panjarali baland minoralar muhim o'rin tutgan. Niderlandiya me'morchiligida uchli burchaklar, deraza va peshtoklar, doira shaklidagi oynalar, bezak qism (fial) lar qurish xos bo'lgan.

Niderlandiyadagi nodir cherkov namunalaridan biri Rurmond abbatligidagi cherkov (1218-1224) hisoblanadi. XIV-XV asrlarga kelib gotika uslubi ancha ommalashdi va janubiy viloyatlarga qadar yetib bordi. Utrextdagi Dam cherkovi (1383-1496), Amsterdamdagi Eski cherkov (1300 - yillar), Delftdagi Yangi cherkov gotika uslubining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu qurilishlarda tosh bilan birga g'ishtlar ham ishlatildi. Toshlarini o'yib ishlash murakkabligi sabab g'ishtlarga biri-biridan go'zal naqshinkor bezaklar berildi. Bizning kunlarimizga qadar yetib kelgan gotika namunalari ichida Utrextdagi 112 metrli binoga

qo'ng'iroq joylashtirilgan. Bu inshot Damda joylashgan bo'lib, 1321-1382 yillarga tegishli. Unga chiqish uchun 465 ta zinani bosib o'tishimiz kerak bo'ladi. Bino ustida qo'ng'iroq yonida turib Utrext shahrining go'zal manzarasiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ko'rinish jihatidan hashamatli va maftunkor inshootardan biri Xertogenbosdagi Avliyo Ioann sobori hisoblanadi. Bu sobor 1380-1350 yillarda Brabant gotikasi uslubida bunyod etilgan. Unda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Undan tashqari savdogarlarni yo'ldan adashmasdan shaharga yetib kelishlari uchun minoralar bunyod etilgan. Bunday minoralardan biri Bryuggeda bo'lgan. Uning balandligi 105 metr bo'lib, XIV asrga tegishli yodgorlik hisoblanadi. Uning yonida savdogarlar o'z rastalarini qurishgan. Ba'zi savdogarlar uning tepasiga chiqish mumkin bo'lga moslamalarni o'rnatib, Bryuggening ajoyib tabiatidan bahramand bo'lmoqchi bo'lgan kishilarga xizmat ko'rsatgan. XIV asrda Iprda bunyod etilgan minora ham Bryuggedan qolishmaydi. Flandriya shaharlarida shahar markazida joylashgan ratushalar ham murakkab sanat memorchiligi bilan bezatilgan. Ayniqsa Bryugge (1376-1421) da joylashgan ratusha boshalariga nisbatan balandligi va rangli jilosi bilan farq qilardi.

Uyg'onish davri va barokko me'morligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Niderland gotikasi tasviriy san'ati diniy va dunyoviy dunyoqarashlardagi uyg'unlikni saqlagan holda rivojlandi, ayni vaqtda voqelikni uning hodisalari bilan birga aks ettirishga intildi. Ibodatxonalar bezagida haykal va releflar (Geldern ibodatxonasida 700 dan ortiq haykal), vitrajlar (Utrextda) keng qo'llanilgan, tasviriy san'at asarlari me'moriy hayolotga bo'ysundirilgan. Diniy mavzudagi asarlar bilan bir qatorda maishiy lavhalar, mehnat jarayoni aks etgan, ba'zan hajviy lavhalar ham uchraydi (Brabantdagi ibodatxonalarda). Amaliy bezak san'ati yuksak darajada rivojlandi: tosh va fil suyagi o'ymakorligi, metall buyumlar, emal va shu kabilar. Rangtasvirda nisbatan kitob miniatyurasi keng taraqqiy etdi, unda tarixiy va maishiy lavhalar haqqoniy aks ettirildi.

Pedagogika. XIII asrda diniy adabiyot rivojlandi. XIII-XIV asrlarda monastirlar qoshida “hayotiy aka-ukalar” maktablari yuzaga keldi. Ularning asosiy a’zolari monaxlar edi. Bu jamiyat a’zolari bolalarga ta’lim berish bilan shug’ullanardi. Asosan cherkov aqidalariga o’rgatilgan bolalar vaqt o’tib mehr-muruvvatli monaxga aylanishi kerak ed. Antic davr asrlari va cherkov xizmatchilarning yozib qoldirgan kitoblaridan foydalanilgan. Ritorika darslari esa bolalar voyaga yetgunlariga qadar ularning asosiy mashg’ulotlariga aylangan. Bu monastirlar ilohiyotchi Foma Kemptsiy, faylasuf Nikolay Kuzanskiy, gumanist Aleksandr Gegiy kabi shaxslarni yetishtirib chiqardi. Foma Kemptsiy o’z qarashlarida Muqaddas yozuvni tan olish, ilohiy qismatga ishonish, odamlarning najot topishida ruhoniylarning yordami zarurligini inkor etish, xoj va ikonaga sajda qilishni inkor qilish, cherkov marosimlarini soddalashtirish (ibodat paytida diniy musiqa chalmaslik, sham yoqmaslik, cherkov devorlarida tasvirlar bo’lmasligi) ni ilgari suradi. Bu o’z navbatida yarim asr o’tib cherkovning isloh qilinishiga olib keldi.

Vezale, Emmirix va Deventere shaharlari monastirlarida Aleksandr Gegiy (1433-1498) tomonidan “hayotiy aka-ukalar” maktablari tashkil etildi. Sxolastika ilmining yoshlar ongiga qattiq ta’sir qilishidan qayg’urib, bu fanlarni maktablardan olib tashlaydi. U o’z o’quvchilariga lotin tili bilan birga qadimiy grek tilini ham o’rgatgan. “Hayotiy aka-ukalar” maktablari gumanizm g’oyalarning tarqalishida muhim rol o’ynab, bu maktabda niderland gumanizmining ilk nomoyondalari bo’lmish: Gansfort (Iogan Vessel), Rudolf Agrikola va Erazm Rotterdamskiylar ta’lim berishdi. Niderland adabiyotining yirik namoyandasi Erazm Rotterdamskiyning «Bema’nilik madxi» hajviy asari (1509) Uyg’onish davri ruhida yozilgan.

Bu asar sxolastikaga va cherkovning ma’naviy hukmronligiga qarshi turgan dunyoviy hurfiylik madh etadi. G’arbiy Yevropadagi bir necha mamlakatlarda gumanizm ijtimoiy tafakkur sohasida, adabiyot, san’at va ilm-fanda katolistizmga va shaxsning qulligiga qarshi qaratilgan ilg’or harakat edi. Gumanizmning atoqli namoyandalari Erazm Rotterdamski va uning birodarlari inson huquqi va olijanob

fazilatlar, ilm-ma'rifat va hurriyat uchun, kishilarning har tomonlama erkin rivojlanishi uchun kurash olib bordilar. Reformatsiya harakatining yana bir namoyondalaridan biri bo'lgan Martin Lyuter "hayotiy aka-ukalar" maktabi vakili edi.

Haykaltaroshlik. XII asrdan shaharliklar va cherkov uchun haykallar yasash birmuncha rivojlandi. Maas haykaltaroshlik maktabiga Godfrua de Kler asos soladi. XIV-XV asrlarda Maas hududida ijod qilayotgan Dinan ismli ustaning ishlari G'arbiy Yevropada mashhur bo'ldi. Haykaltaroshlik san'atining yuksalishi XIII-XV asrlarga to'g'ri keladi. Fransuz haykaltaroshlik maktabi yaqqol sezilib turadi. XIV asrda Burgundiya zodogonlari o'z yaqinlarining tobut va qabrtoshlarini qimmatbaho toshlar bilan bezata boshlashgan. Bu davr niderland haykaltaroshlari orasida Klaus Slyuter (1350-1406) va uning shogirdi Klaus de Verre (1380-1439) ning ishlari ajralib turadi. Asli Xarlem shahridan bo'lgan Klaus Slyuter asosiy umrini Fransiya va Burgundiya shaharlarida o'tqazdi.

U 1389-yildan Burgundiya gersogi Fillip Jasurning shaxsiy haykaltaroshi bo'lib ishladi. Dijonda bunyod etilgan hukmdor saroyi Yevropaning eng muhtasham saroylaridan biri edi. Bu saroyda ishlagan paytda u bir qancha buyurtmalarni mahorat bilan bajardi. Dijonda joylashgan Shanmon Cherkovi dahmasi uchun haykalchalar hamda Fillip Jasur va uning rafiqasi Margarita Flandriyskayaning haykallarini yasab o'z mahoratini namoyish etdi. Uning haykallariga xos bo'lgan xislatlardan biri qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Asarlarida uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalanilgan. Odam yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagi buklanishlar, mayda qismlarga qadar ko'rsatishni mo'ljal qilgan.

K. Slyuter o'z asarlarini byust (belgacha bo'lgan portret), tors, haykal (odam gavdasining natural kattalikda ishlangan ko'rinishi), haykalcha (natural kattaligidan kichik bo'lgan haykallar), janrli haykal (muayyan muhitda tasvirlangan odam yoki odamlar guruhi) ko'rinishda ifoda etgan. Ijodkor nursoya o'yinidan foydalanish orqali asarning ta'sir kuchini oshirishga erishgan. Asosiy e'tibor nur tushishi bilan haykal jonlanishi, nur yo'nalishining o'zgarishi bilan

undagi nursoya tovlanishiga berilgan. Natijada undan tomoshabin oladigan taassurot ham o'zgarib boradi. Insonning tashqi ko'rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi, asarda kechinmalar, hayajon, g'amginlik ham o'z ifodasini topadi. K. Slyuter mahorati, to'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat asarning ta'sirli bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Klaus Slyuter shogirdi Klaus de Verre bilan "Golgof" kompozitsiyasini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Bu asarning hozirgi kunga qadar faqatgina asos qismi yetib kelgan. Shogirdi Klaus de Verre Antik davrda ijod qilib, odamning ruhiy holatini ifodalash borasida katta yutuqlarga erishdi. Yunoniston va qisman Qadimgi Rim davriga oid asarlarida insoniy tuyg'ular, uning kamoloti yetakchi o'rinni egalladi, tasvirlashda haqqoniylik hukm surdi, jismoniy baquvvat va ma'naviy go'zal inson obrazini yaratish uning bosh maqsadi bo'ldi. Niderland haykaltaroslari portret san'atida katta yutuqlarga erishdilar, ularning asarlarida insonning murakkab kechinmalari kuchli realizmda tasvirlandi, shaxsning jismoniy va ma'naviy holati ochiq ko'rsatildi. Brabantda ilk bor otliq qo'mondon haykali ishlandi, bo'rtma tasvirda ham katta yutuqlarga erishildi ⁴⁴.

⁴⁴ Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие для вузов...стр 93-97

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., "Маънавият", 2008.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Ўзбекистон, 1998.
3. Городская жизнь в средневековой Европе. М, «Высшая школа», 1987.
4. Григорий Турский. История франков. М., 1987.
5. Удалцова З. В, С. П. Карпов. История средних веков. Т., 1 - 2 М., «Высшая школа», 1991.
6. Люблинская А.Д. Источниковедения истории средних веков Л., 1955
7. Буданова В. П. Варварский мир эпохи Великого переселения народов. М., 2000.
8. Максаковский В. П. Историческая география мира. М., 1997.
9. Решина М. И. Фризы. Проблемы этнокультурного развития. М., 1996.
10. Серебрянный Л. Р. Нидерланды: Традиции и современность. М., 1990.
11. Токарев С. А. Ранние формы религии. М., 1990.
12. Федорова Е. В. Люди императорского Рима. М., 1990.
13. Каролингская эпоха. Из истории Западной Европы в раннее Средневековье: Сборник документов / Под ред. А. А. Сванидзе, Е. П. Мягкова. Казань, 2002.
14. Опыт тысячелетий. Средние века и эпоха Возрождения: Быт, нравы, идеалы. М., 1996.
15. Хрестоматия по истории Средних веков / Под ред. С. Д. Сказкина. М., 1961-1963. Т. 1 -2 .

- 16.История Европы. Средневековая Европа. М., 1992. Т. 2.
- 17.История Средних веков: В 2 т. / Под ред. С. Д. Сказкина и др. М., 1977.
- 18.История Средних веков / Под. ред. С. П. Карпова. М., 2000. Т. 1-2.
- 19.Керов В. Л. Из истории Франции и Нидерландов в эпоху
Средневековья и раннего Нового времени (экономика, политика,
религия). М., 2000.
- 20.Колесницкий Н. Ф. Особенности вассально-ленных отношений в
Германии X-XIII вв. // Средние века. М., 1969.
- 21.Миронов С. А. История нидерландского литературного языка (IX-XVI
вв.). М., 1986.
- 22.Пиренн А. Средневековые города Бельгии. М., 2001.
- 23.Самаркин В. В. Историческая география Западной Европы в Средние
века. М., 1976.
- 24.Шатохина-Мордвинцева Г. А. История Нидерландов: учебное пособие
для вузов . М.: Дрофа, 2007.

XULOSA

IV asr o'rtalariga kelib Niderlandiyaning ichki viloyatlari ko'chib kelgan frank va saksonlar tomonidan egallanib, ular bu yeda dehqonchilik bilan shug'ullana boshladi. Belgiyaning ovloq bo'sh yotgan yerlari, Galliyadan Luara daryosiga qadar yerlar franklar tomonidan birin ketin zabt etildi. Ilk o'rta asrlarda Zamonaviy Niderlandiya hududiga ko'chib kelgan bu xalqlar mahalliy xalqlar bilan aralashib, yagona millat vakillariga aylanishdi.

XIII asr o'rtalaridan Niderlandiya shaharlarning iqtisodiy o'sishi va cherkovlarning obo'si oshishi tufayli butun shahar bo'ylab borayotgan qurilishlarga yangi uslub kiritish g'oyalari tug'ila boshlaydi. Cherkov va ibodatxonalarni bunyod etishda gotika uslubidan foydalana boshlashadi. Ko'plab oddiy va muhtasham qurilishlar XIV asrda tezlashdi. Lekin o'sha davr obidalaridan ozginasngina bizgacha yetib kelgan. G'arbiy va Markaziy Yevropada xususan Niderlandiyada san'atida gotika badiiy uslub hukm surgan edi.

Har bir shahar qo'shni yerlar hisobiga boyishi orzusida bo'lgan alohida feodal guruhlar o'rtasidagi doimiy harbiy to'qnashuvlar XII-XV asrlarda Niderlandiya davlatini to'la bosh boshdoqlikka va ko'plab mayda mulklarga parchalanishiga sabab bo'ldi. Feodalizm insoniyat taraqqiyotida faqat ijobiy voqealardan tashkil topmadi va hech qanday jamiyatdagi kabi fuqarolarning ahvoli ham feodalizmdagi kabi og'ir va tahqirli bo'lmagan. Insoniyat tarixidagi mavjud qonunlar va tartiblar feodalizmdagi kabi faqat past tabaqalar tomonidan bajarilishi talab qilinganini uchratmaymiz. Bularni bartaraf qilish uchun ular bir qator qo'zg'olonlar qildilar va yangi davrga qadam qo'yidilar.

XV asr oxirlariga kelib Niderlandiya viloyatlari G'arbiy Yevropaning kurtak yozayotgan hududlaridan biriga aylandi. Buning asosiy sabablaridan biri uning geogragik joylashuvi hamda unda quruqlik va dengiz savdosining rivojlanganligi edi. X-XIV asrlar Utrext, Brabant, Leyden, Geldern, Frislandiya, Groningen, Overeyssel, Gollandiya, Gaaga, Rotterdam va Amsterdam shaharlarining hayotida keskin ko'tarilish davri bo'lgan edi. Gollandiya-Gennegau, jumladan, hunarmandchilik va savdo, jamoatchilik, ma'naviy va madaniy hayotining shiddatli rivojlanishi, shahar o'qimishli qatlamining tarkib topgani bilan izohlanadi. Niderlandiyaning rivojlangan shaharlari G'arb madaniy hayotida jonli ishtirok etgani va Xristian ruhoniylari, olimlari va shoirlarini yetkazib bergani bilan tarixda nom qoldirgan.

Yevropada XVI asrga kelib feodalizmning inqirozi belgilari namoyon bo'la boshlaydi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlarining rivojlanishi bilan birga ularning huquqiy tizimlari ham rivojlanib bordi. Feodal tarqoqlik davrida bu jarayonning muhim belgisi huquq "partikulyarizmi", ya'ni butun mamlakat uchun yagona huquqning yo'qligi edi. Huquq "partikulyarizmi"ni bartaraf etilishi ayniqsa tabaqa-vakillik monarxiyasi davridan boshlab jonlanadi.

Shaharlarda ishlab chiqarish va savdo rivojlandi. O'sha davr uchun takomillashgan buyumlar, yirik arxitektura inshootlari va boshqa san'at asarlari yuzaga keldi hamda ko'p kashfiyotlar qilindi. Qishloq jamoalari asosan natural, turg'un xo'jalik yuritib faqat ichki bozorni rivojlantirgan, tovar ishlab chiqarishning o'sishiga moslashmagan va oqibatda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga to'sqinlik qilgan. Bu albatta mutloq turg'unlikni anglatmadi va jamiyat ham asta – sekin rivojlanishda davom etdi.